O‘quv rejasiga muvofik o‘zaro bog‘liq bo‘lgan modulning nomi	“Hamshiralik ishi”, “Gerontologiyada hamshiralik ishi”, “Pediatriyada hamshiralik ishi”, “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi”, “Jamoada hamshiralik ishi”
O‘qitishning tashkiliy shakli	<b>N –nazariy ta’lim;</b>
Modulga qo‘yilgantalar	<b>Majburiy</b>
O‘qitish tili	<b>Guruxga tayinlangan dars tili asosida</b>
Baxolash tartibni	<b>Joriy baxolash tartibiga asoslanib</b>
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshirik

## 2. O‘quv modulining mazmuni

№	<b>Mavzuning nomi</b>	<b>Mavzuning qisqacha mazmuni</b>	<b>Jami</b>	<b>O‘qitishi tashkiliy shakli</b>	<b>Mustakil ta’lim</b>
1	Valeologiya asoslari, tarixi. Valeologiyaning boshqa ilmiy sohalar ichida tutgan o‘rni.	Valeologiyaning vazifalari, tibbiyotda tutgan o‘rni. Valeologiyaning rivojlanish bosqichlari. Valeologiyada qo‘llaniladigan usullar. Salomatlik va sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va ahamiyati. Valeologiya tasnifi. Turmush tarzi, hayot tarzi tushunchalari. Hayot darajasi ko‘rsatkichlari. Hayot tuzilishi, hayot uslubi, hayot sifati tushunchalari. Hayot tarzi va salomatlikka ta’sir etuvchi omillar. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotda tutgan o‘rni.	2	2-N	

		Salomatlik darajalari, ko'rsatkichlari. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika. Aholining umumiy, guruhiy va populyatsion salomatligi. Sog'lom turmush tarzining, sportning, shaxsiy gigienaning salomatlikka ta'siri.		
2	Sog'lom turmush tarzi va uning salomatlikni shakllantirishdagi ahamiyati. Insonlarni individual xususiyatlari, organizm rezervlari va adaptatsiya.	Insonning yashash muhitini shakllantirilishi uning valeologik madaniyati, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy bosimning ta'siri. Bolalar doimo o'sib, rivojlanib borishi tufayli ularga har bir davrida shaxsiy xususiyatlardan tashqari alohida morfologik, fiziologik va psixologik xossalari yoki xususiyatlari. Ontogenez haqida tushuncha. Ontogenezning uchta davri: tayyorlov; homila davri (homila rivojlanishi); tug'ilgandan keyingi (postnatal rivojlanish) yoki bolalik.	4	4-N
3	Ritorika (nutqning ahamiyati)	Ritorika haqida tushuncha, uning turlari va xususiyatlari. Muloqot xaqida tushuncha. Muloqot turlari, darajasi va vositasi. Mantiqiy fikrlash haqida tushuncha va uning qonuniyatları. Sanitariya ma'orifi tushunchasi. "Salomatlik" instituti maqsad va vazifalari.	2	2-N
4	Sog'lom turmush tarzini shakllanitirish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda tibbiyot xodimlari etika va deontologiyasi.	Tibbiyotda vrach-o'rta tibbiy xodim munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Tibbiyotda o'rta tibbiy xodim-bemor munosabatlaridagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Muammolarni yechish bosqichlari.	4	2 - N 2
5	Sog'lom hayot tarzini shakllantirishga individual yondashuv tamoyillari.	Sog'lom turmush tarzi tushunchasi, uning asosiy maqsadi, vazifalari va tarkibiy qismlari. Sog'lom turmush tarzining oila a'zolari salomatligiga ta'siri. Dispanser ko'rigi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari. Inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlar to'g'risida tushuncha. Maqsadli guruhlarni aniqlash. Aholining turli guruhlari salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash. "O'spirinlik davri" "Yoshlar" "Katta yoshdagilar" "Qariyalar va uzoq umr ko'rvchilar" maqsadli guruhining ma'naviy, psixologik, tibbiy va jismoniy aspektlari.	6	4 - N 2
6	Aholi orasida sog'lom turmush	Inson salomatligi. Ijtimoiy va shaxsiy salomatlik. Aholi salomatligining ko'rsatkichlari. O'zbekiston	4	2

	tarzini shakllantirishda hamshiraning o'rni.	<p>Respublikasining aholi salomatligini muxofaza qilish va saqlash bo'yicha asosiy me'yoriy hujjatlar.</p> <p>Salamatlikka ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar (ijtimoiy, tabiiy va irsiy). Sog'liqqa xavf tug'diruvchi omillar (noto'g'ri ovqatlanish, gipodinamiya). Oilada va jamoada sog'lom turmush tarzini shakllantirish usullarini va targ'ibotini tashkil qilish.</p> <p>Ekologiyaning salamatlikka, yosh avlodning o'sib ulg'ayishdagi ta'siri. Ekologik muhitning ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan kasalliklar haqida ma'lumot. Irsiy kasalliklar.</p> <p>Salamatlik darajasini baholashda qo'llaniladigan populyatsion dasturlarni yaratish. Aholi salomatligini nazorat qilishda qo'llaniladigan sifat va miqdor ko'rsatkichlari: individual, guruhli.</p> <p><b>«Salamatlik kodeksi» sog'lom hayot garovi</b></p>		2-N	
7	Ratsional ovqatlanishning valeologik tamoyillari Sog'lom va tartibili ovqatlanish madaniyatini shakllantirish	Ratsional ovqatlanish — kasallikning oldini olish omilidir. Ratsional ovqatlanishning sog'liqqa ta'siri. Ratsional ovqatlanishga bo'lgan asosiy talablar. Muvozanatlashgan va sog'lom ovqatning asosiy negizlari. Ovqatlanish rejimi buzilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar. Bolalarni, homilador ayollarni, o'rta yoshdagilarni va qariyalarni ovqatlanirish. Aqliy va jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarning ovqatlanishi. Ratsional ovqatlanishda milliy taomlar o'rni.	6	4-N	2
8	Psixoemotsional holatning roli va valeologik ahamiyati	Aqliy va jismoniy mehnat qiluvchi kishilarning psixoemotsional holati. Psixologik ta'sir — davolash usuli sifatida. Odam organizmiga psixoemotsional holatning ta'siri. Psixoemotsional zo'riqishlar.	4	2-N	2
9	Jismoniy tarbiyaning roli va valeologik ahamiyati. Yoshiga, jinsiga va salamatlik darajasiga munosib jismoniy faollik	Jismoniy tarbiyaning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta'siri. Jismoniy mashqlar turlarini va inson a'zolariga ularning ta'siri, chiniqtirishning salamatlikka ta'siri, asosiy qoidalari, turlari va vositalarini. Jismoniy tarbiya — salamatlik garovi. Jismoniy mashq qilishning asosiy negizlari. Mashg'ulotlarga individual yondashish, o'z-o'zini nazorat qilib borish. Jismoniy mashg'ulot — davolash usuli sifatida. Odam organizmiga jismoniy mashg'ulotlarning ta'siri.	4	2N	2
10	Jinsiy va reproduktiv salamatlikning	Jinsiy va reproduktiv salamatlik xaqida tushunchalar. Reproduktiv huquq xaqida tushunchalar,	4	2 N	2

	valeologik ahamiyati	<p>reproduktiv salomatlikni muhofaza qilishdagi tamoyillar.</p> <p>Tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish tushunchasi.</p> <p>Sog‘lom bola tug‘ilishini ta’minalash, jismoniy, sog‘lom va ruhiy rivojlangan avlodni tarbiyalash asoslari. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish tamoyillari. Homilador ayollar salomatligini yaxshilash va sog‘lom bola tug‘ilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar: oila, jamiyat, davlat.</p>		
1 1	Balog‘at yoshi haqida – ruhiy, jismoniy va jinsiy rivojlanish davri. Yoshlarda jinsiy tarbiyava madaniyatni shakllantirish	Balog‘atga yetmagan qizlar organizmida rivojlanish davrlardagi o‘zgarishlar va ular salomatligiga ta’sir etuvchi omillar. Balog‘atga yetmasdan turmushga chiqish va homilador bo‘lishning zararli oqibatlari va oldini olishning ahamiyati. Erta homiladorlik va tug‘ruqlarni oldini olish. Yoshlarda jinsiy madaniyatni shakllantirish yo‘llari.	4	2-N 2
1 2	Xulq- atvor omillariga ta’sir etishni valeologik yondashuvi	Xulq-atvor haqida tushuncha. Xulq-atvorning inson salomatligiga ta’siri. Insonning salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi xulq-atvor omillari va ularni oldini olish chora-tadbirlari.	4	2-N 2
1 3	Giyohvandlikni oldini olishda zamonaviy valeologik yondashuvlar. Ichkilikbozlikni oqibatlari hamda uni oldini olishning chora-tadbirlari	<p>Aholi salomatligiga giyoxvandlikning ta’siri. Muammoni yechish yo‘llari. Giyoxvandlikni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.</p> <p>Giyohvandlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish belgilari. Giyohvandlik profilaktikasi.</p> <p>Ichkilikbozlik – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga ichkilikbozlikning ta’siri. Ichkilikbozlikni oldini olishning zamonaviy yo‘nalishlari. Ichkilikbozlikni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.</p> <p>Ichkilikbozlikni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati.</p>	2	2-N
1 4	Tamaki mahsulotlarini chekishning oqibatlari hamda uni oldini olishning chora-tadbirlari	<p>Aholining turli guruhlari orasida tamaki mahsulotlarini chekishning oldini olish chora-tadbirlari. Tamaki mahsulotlarini chekishni rivojlanishida turli omillarning ahamiyati.</p> <p>Tamaki mahsulotlarini chekish aholining salomatligiga ta’siri. Tamaki mahsulotlarini chekishni oldini olishning zamonaviy yo‘nalishlari va dasturlari.</p>	2	2-N
1 5	OIV/OITS muammolarini	OIV/OITS – inson xulq-atvori muammosi sifatida. Aholining salomatligiga OIV/OITSni ta’siri. OIV/OITSni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.	2	2-N

	oldini olishda valeologik yondashuvlar	OIV/OITSni rivojlanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati. OIV/OITSni oldini olishning zamonaviy yo‘nalishlari va dasturlari			
		<b>Jami</b>	<b>54</b>	<b>36</b>	<b>18</b>

### **3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash**

O‘quv moduli asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriklardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

### **4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yhati**

#### **Prezident asarlari:**

1. Shavkat Mirziyoev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
2. Shavkat Mirziyoev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
3. Shavkat Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2016.
4. Shavkat Mirziyoev «Taqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent – “O‘zbekiston” 2017.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Irgashev Sh.B. “Meditinskaya valeologiya”. Tashkent, 2012
2. Irgashev Sh.B. “Valeologiya”. Tashkent, 2015

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Sayfiddin Faxriddin o‘g‘li. Valeologiya asoslari salomatlik yohud uzoq umr ko‘rish omillari. Toshkent, 2007
2. Avitsenna. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1982, polnoe sobranie sochineniy
3. Irgashev Sh.B. «Valeologicheskie prinsipy ratsionalnogo pitaniya». Tashkent – 2010 g. Metodicheskie rekomendatsii
4. Irgashev Sh.B. «Sovremennye napravleniya formirovaniya zdorovogo obraza jizni sredi naseleniya». 2008g, Metodicheskoe posobie
5. Irgashev Sh.B., Tursunxodjaeva L.A., «Pervichnaya profilaktika narkozavisimosti sredi uchashchixya obrazovatelnyx shkol». Uchebno- metodicheskoe posobie dlya uchiteley, Ministerstvo zdravooxraneniya Respublikи Uzbekistan, Tashkent 2011.
6. Lisisyn Yu.P. «ObЩestvennoe zdorove i zdravooxranenie. Uchebnik. Moskva, 2010.

#### **Internet saytlari:**

1. [www.med.uz](http://www.med.uz),
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz),
3. [www.google.uz](http://www.google.uz),
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz),
5. [www.referat.uz](http://www.referat.uz).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING  
O'QUV DASTURI**

**5.71.03.01-“Hamshiralik ishi” mutaxassisligining**

**HAMSHIRALIK ISHI**

**Kvalifikatsiyalar nomi:** Umumiy amaliyot hamshirasi

**O'quv rejadagi tartib raqami:** 3.02

**Ajratilgan soat:** 176

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



**Tuzuvchilar:** 1 – Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat  
salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi: S. A Zuparova

**Taqrizchilar:** Shahar tez tibbiy yordam klinik shifoxonasi bosh hamshirasi:  
N. Xatiashvilli  
1 – Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat  
salomatligi texnikumi bosh o'qituvchisi: M. T Xodjasheva

## 1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

<b>O‘quv dasturining nomi</b>	Hamshiralik ishi
<b>Ajratilgan soat</b>	176 soat
<b>Mavzular soni</b>	26
<b>Dasturning maqsadi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hamshiraning ish faoliyati davomida kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni talab darajasida yetkazib berish;</li> <li>- davolash profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlar bilan tanishtirib borish;</li> <li>- sog‘lijni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda qatnashish;</li> <li>- nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq etgan holda bevosita bemorlar bilan o‘zaro muloqot qilish, ularni ob’ektiv va sub’ektiv tekshiruvlari orqali yoki bemor kasallik tarixidan ko‘chirmalar, masalalar tahlil qilish orqali hamshiralik tashxisi to‘g‘risida aniq xulosalar asosida hamshiralik jarayonini amalga oshirishga zamin yaratish;</li> <li>- tashxislash va davolashda hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalarini o‘rgatish;</li> <li>- bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali hamshiralarning turli shoshilinch holatlarda bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlash;</li> <li>- nazariy va amaliy darslar o‘tish orqali bemor parvarishi xamda uy sharoitida parvarishga muhtoj bo‘lgan insonlarni parvarishlashda patronaj hamshiralarning ish xususiyatlarini bo‘lajak hamshiralarga o‘rgatish.</li> </ul>
<b>O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kundalik hayot faoliyatida va bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish usullari, bemorlarda hayot uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni o‘lchash va funksional holatini baholash, infeksiya nazorati va infeksion xavfsizlik chora – tadbirlarni, tashxislashda, davolashda va terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishini o‘tkazish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar</li> </ul>
<b>Bilim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hamshiralik ishi faninig rivojlanish tarixi;</li> <li>- kundalik hayot faoliyatida hamshiralik parvarishi;</li> <li>- bemorlarning funksional holatini baholash usullari;</li> <li>- hamshiralik jarayoni bosqichlari;</li> <li>- infeksiya nazorati va infeksion xavfsizlik chora – tadbirlar;</li> <li>- tashxislash va davolash usullari;</li> <li>- laborator va instrumental tekshiruv usullari;</li> <li>- hamshiralik ishidagi boshqaruv tushunchasi;</li> <li>- terminal davrdagi bemorlarni parvarishlash;</li> </ul>
<b>Ko‘nikma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish usullari;</li> <li>- bemorlarda hayot uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni o‘lchash va funksional holatini baholash;</li> <li>- hamshiralik jarayoni olib borish, parvarish rejalarini tuzish va</li> </ul>

	<p>hamshiralik hujjatlarini yuritish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- infeksiya nazorati va infektion xavfsizlik chora – tadbirlar o‘tkazish;</li> <li>- tashxislash va davolashda bemorlarga hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalar;</li> <li>- laborator va instrumental tekshiruvlar o‘tkazishda hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalar;</li> <li>- hamshiralik ishidagi boshqaruvni olib borish;</li> <li>- terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishini o‘tkazish;</li> <li>- mavzuga oid berilgan amaliy ko‘nikmalarni harakat algoritmini ketma – ketligini bajarish.</li> </ul>
<b>O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Anatomiya</li> <li>- Fiziologiya</li> <li>- Patologiya</li> <li>- Farmakalogiya va retseptura asoslari</li> <li>- Umumiy gigiena va ekologiya</li> <li>- Valeologiya</li> <li>- Yuqumli kasallikkarda hamshiralik ishi</li> <li>- Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya</li> <li>- Tibbiy psixologiya</li> </ul>
<b>O‘qitishni tashkiliy shakli</b>	N – nazariy A – amaliy
<b>Dasturga qo‘yilgan talab</b>	Majburiy
<b>O‘qitish tili</b>	Guruhgta tayinlangan dars tili asosida
<b>Baholash tartibi</b>	Joriy baholash tartibiga asoslanib
<b>O‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholash</b>	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

## 2. O‘quv dasturining mazmuni

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Mavzuning qisqacha mazmuni</b>	<b>Jami</b>	<b>Uqitishning tashkiliy shakli</b>	<b>Mustaqil ta’lim</b>
1	Hamshiralik ishi faniga kirish. Hamshiralik ishining tarixi va rivojlanishi	Hamshiralik ishining ta’rifi. Hamshiralik ishining tarixi va rivojlanishi. Hamshiralik ishi rivojlanishiga xissa qo‘songan asoschilar. O‘zbekistonda hamshiralik ishining rivojlanishi. O‘zbekistonda F.Naytingeyl medaliga sazovor bo‘lgan hamshiralar. Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti, Qizil	3	2 N	1

		Yarim Oy tashkilotlari, Halqaro va O'zbekiston hamshiralari assotsiatsiyasi haqida tushuncha va asosiy vazifalari.			
2	Hamshiralik ishi va salomatlik.	<p>Salomatlik haqida tushuncha. Salomatlikka ta'sir etuvchi omillar.</p> <p>Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish.</p> <p>D. Orem bo'yicha o'z-o'zini parvarish qilish haqida tushuncha. O'z-o'zini parvarish qilishda hamshiraning tutgan o'rni. V.Xenderson bo'yicha asosiy ehtiyojlar va hamshiralik parvarishi</p>	3	2 N	1
3	O'zbekistonda sog'lijni saqlash va hamshiralik ta'limi tizimidagi islohotlar.	<p>Hamshiralik ta'limini takomillashtirish.</p> <p>Hamshiralik ishi bo'yicha xalqaro standartlarni tadbiq etish. Informatsion va innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining sog'lijni saqlash tizimidagi islohotlar. Hamshiralik ishining kasbiy standartlar. Oilaviy poliklinikalarda patronaj hamshirasining vazifalari.</p>	3	2 N	1
4	Davolash profilaktika muassasalari (DPM) ning asosiy turlar va tibbiy hujjatlarni yuritish tartibi.	<p>Davolash profilaktika muassasalari (DPM)ning asosiy turlari yo'nalishlari va hamshiralarning ish faoliyati. Davolash profilaktika muassasalarida yuritiladigan asosiy hujjatlar. QVP va OP da patronaj olib borish qoidalari.</p> <p>DPM da yuritiladigan tibbiy hujjatlarni to'ldirish. Patronaj hamshirasining tibbiy hujjatlari va ularni yuritish.</p>	3 6	2 N 4 A	1 2
5	Tana biomexanikasi va bemorning xavfsizligini ta'minlash.	<p>Tana biomexanikasi haqida tushuncha.</p> <p>Jismoniy faollikning ahamiyati va yordam ko'rsatish usullari. Tana vaziyati haqida tushuncha. Asosiy va maxsus tana holatlari.</p> <p>Tana xolatini o'zgartirmaslik oqibatida yuzaga keladigan o'zgarishlar.</p> <p>Bemor holatiga ko'ra transportirovka usullari.</p> <p>Tana holatini o'zgartirishda bemorga muolaja o'tkazish haqida tushuncha berish, bemorni asosiy xolatlarda yotqizishda shart-sharoit yaratish va amalga oshirish.</p> <p>Bemor tanasini Fauller, Sims va Trendelburg holatiga keltirish.</p> <p>Bemorni transportirovka (tashish) qilish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash.</p> <p>Bemor holatiga mos keladigan</p>	3 12	2 N 8 A	1 4

		transportirovka usulini tanlash va amalga oshirish.			
6	Bemorning shaxsiy gigienasi.	<p>Tozalikning fiziologik, psixologik va ijtimoiy ahamiyati. Terining tuzilishi va funksiyalari, tana tozaligining mohiyati.</p> <p>Yotoq yaralarning paydo bo‘lish sabablari va ularni oldini olish chora tadbirdari. Yotoq yaralarni baholash (Norton, Breyden va Vaterlou shkalasi bo‘yicha).</p> <p>Davolanish muhiti haqida tushuncha va uning tarkibiy omillari.</p> <p>Bemorni muolajaga tayyorlash, sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemor xolatini inobatga olgan xolda gigienik muolajalarni tanlash va amalga oshirish.</p> <p>Teri tozaligini saqlash uchun butun tanani artish muolajasini bajarish. Teri tozaligini saqlash uchun tanani ma’lum bir qismlarini artish muolajasini o‘tkazish.</p> <p>Yotoq yaralarni baholashda (Norton, Breyden va Vaterlou) shkalalaridan to‘g‘ri foydalanish va parvarish qilish. O‘rin bosh oqliklarni tayyorlash.</p> <p>Oqliklar va ichki kiyimni almashtirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemorning xolatini inobatga olgan xolda oqliklar va ichki kiyimni almashtirish usullari.</p>	3	2 N	1
7	Bemorlarni ovqatlantirishda hamshiralik parvarishi	<p>Salomatlik va ovqatlanish. Ratsional ovqatlanish haqida tushuncha. Davolovchi shifobaxsh oziqa turlari haqida tushuncha. Ovqat iste’mol qilishning ahamiyati.</p> <p>Bemorni ovqatlantirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash.</p> <p>Bemorni ovqatlantirishda kerak bo‘lgan xujjatlarni to‘ldirish (porsionnik va taomnomasi).</p> <p>Bemor mustaqil ravishda ovqatlana olmaydigan vaziyatda ko‘rsatiladigan yordam.</p> <p>Bemorning xolatini inobatga olgan xolda maxsus moslamalar yordamida ovqatni qabul qilishda yordam ko‘rsatish.</p>	3	2 N	1
8	Bemorlarni fiziologik chiqaruvlarida hamshiralik	Fiziologik chiqaruvlarning fiziologik, psixologik va ijtimoiy ahamiyati. Siyidik va axlat ajralish fiziologiyasi va mexanizmi. Fiziologik chiqaruvlarni baholash.	3	2 N	1

	parvarishi	Fiziologik chiqaruvlarni amalga oshirish uchun kerakli moslamalar va ularni ishlatish usullari. Fiziologik chiqaruvlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Bemorga mos keladigan tuvak va siydkdonni qo'llash, kerakli yordamni ko'rsatish. Tagliklarni almashtirish. Bemor tagini yuvish.	6	4 A	2
9	Bemorlarning funksional holatini baholash.	Salomatlik darajasini baholash haqida tushuncha va baholash maqsadi. Salomatlik darajasini baholashning tayanch ko'nikmalar. Hayot uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar xaqida tushuncha. Hayot uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash maqsadi va ahamiyati. Umumiyl salomatlikni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Umumiyl salomatlik darajasini baholash: bo'yi, vaznini, bosh, ko'krak va qorin aylanasini o'lhash; bemorning boshdan-oyoq fizikal tekshiruvi. Hayot uchun zarur ko'rsatkichlarni baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Hayot uchun zarur ko'rsatkichlarni aniqlash va baholash. Tana harorati o'lhash, isitma davrlarida bemor parvarishi, tomir urishi, nafas faoliyatini, qon bosimini o'lhash, suv balansini aniqlash va baholash.	4     12	2 N     8 A	1     4
10	Teri, limfa, sezish, harakat qilish va skelet tizimini baholash.	Teri, limfa, sezish, xarakat qilish va skelet tizimining tuzilishi va funksiyasi, patologik o'zgarishlarning asosiy kuzatuv qoidalari va o'zgarishlarda kuzatiladigan asosiy simptomlari. Kundalik hayot tarzidagi va ruxiy o'zgarishlar. Teri, limfa, sezish, xarakatlanish va suyak-mushak tizimini baholash uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Teri, limfa, sezgi, xarakatlanish va suyak-mushak tizimini baholash uchun umumiyl ko'rik o'tkazish, so'rab – surishtirish, paypaslash (palpatsiya), eshitish (auskultatsiya), dukillatish (perkussiya) o'tkazish va kuzatuv natijalari bo'yicha baholash, natijalarni yozuvlarda qayd etish.	3     12	2 N     8 A	1     4
11	Nafas olish	Nafas olish a'zolari tizimi tuzilishi va	3	2 N	1

	tizimini baholash.	<p>funksiyasi. Nafas olish a'zolari tizimining buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlar. Kundalik hayotdagi va ruhiy xolatdagi o'zgarishlar.</p> <p>Nafas olish a'zolari tizimini baholash uchun bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Nafas olish funksiyasini baholash uchun so'rab – surishtirish, ma'lumot yig'ish, paypaslash, dukillatish va eshitib ko'rish va kuzatuv natijalari bo'yicha baholash, natijalarni yozuvlarda qayd etish.</p>	6	4 A	2
12	Qon aylanish a'zolari tizimini baholash.	<p>Qon aylanish a'zolari tizimi tuzilishi va funksiyasi. Qon aylanish a'zolari tizimining buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlar. Kundalik hayotdagi va ruhiy xolatdagi o'zgarishlar.</p> <p>Elektrokardiografiya. Yurakning o'tkazuvchanlik tizimi va elektrokardiogramma haqida tushuncha. va elektrodlarni joylashtirish uslubi.</p> <p>Qon aylanish a'zolari tizimini baholashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Puls, arterial bosimni aniqlash va baxolash. Qon aylanish a'zolari tizimini kuzatish. Intervyu, ko'rik, so'rab-surishtirish, ma'lumot yig'ish,paypaslash, dukillatish, eshitish, kuzatuv natijalari bo'yicha baholash va yozuvlarda qayd qilish.</p>	3 6	2 N 4 A	1 2
13	Ovqat hazm qilish a'zolari tizimini baholash.	<p>Ovqat hazm qilish a'zolari anatomiysi va fiziologiyasi. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimi faoliyati va hazm qilish a'zolari tizimi faoliyati buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlar. Kundalik hayotdagi va ruhiy xolatdagi o'zgarishlar.</p> <p>Ovqat hazm qilish a'zolari tizimini baholashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimini buzilganda bemorlarni so'rab – surishtirish, ma'lumot yig'ish, paypaslash, dukillatish va eshitish.</p> <p>Ovqat hazm qilish a'zolari tizimining buzilishlarida kuzatiladigan asosiy simptomlarni baholash. Ko'rik, auskultatsiya, palpatsiya, perkussiya o'tkazish. Kuzatuv natijalari bo'yicha baholash va xamshiralik yozuvlarda qayd</p>	3 6	2 N 4 A	1 2

		qilish.			
14	Kirish. Hamshiralik jarayoni va uning ahamiyati. Hamshiralik jarayonini o‘tkazish usullari.	<p>Hamshiralik jarayonining axamiyati va maqsadi. Hamshiralik jarayoni ta’rifi. Hamshiralik jarayonini yuritishda tayanch prinsiplar. Hamshiralik jarayoni bosqichlari.</p> <p>Muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini o‘tkazish rejasini tuzish.</p> <p>Muammoli masalani muhokama qilish va yozuvlarni qayd qilish uslullari.</p> <p>Muammoli masala asosida hamshiralik jarayonini yuritish; taxlil qilish, parvarish rejasini tuzish, amalga oshirish, natijani baholash.</p>	4    	2 N    	2    
15	Infeksiya nazorati va infekzion xavfsizlik	<p>Infeksiya haqida tushuncha. Infeksiyaning tarqalish yo‘llari. Kasalxona ichki infeksiyasi haqida tushuncha. Davolash va profilaktika muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi chora tadbirlar bo‘yicha amaldagi asosiy buyruqlar.</p> <p>Dezinfeksiya haqida tushuncha. Shifoxona ichki infeksiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora tadbirlar. Sterilizatsiya haqida tushuncha. Sterilizatsiya usullari va asosiy qoidalari. Kasalxonadagi muolaja xonasida infekzion kasalliklarni oldini olish choralar. Asseptika va antiseptika haqida tushuncha. Bog‘lov ashyolari turlari va zararsizlantirish usullari.</p> <p>Qo‘lni gigienik, kundalik va operatsiyadan oldin Spasokukoskiy Kochergin bo‘yicha qo‘lni yuqumsizlantirish. Himoyalovchi kiyimni qo‘llash va xalat kiyish.</p> <p>Texnika xavfsizlik qoidasiga rioya qilgan xolda dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash bosqichlarini o‘tkazish. Tibbiy qoldiqlarni yo‘q qilish usullari.</p> <p>Aseptika qoidasiga rioya qilgan xolda steril ashyolar bilan ishlash. Muolaja uchun steril bog‘lov ashyolari va steril stolni tayyorlash. Tibbiy qoldiqlarni yo‘q qilishusullari.</p>	4         	2 N         	2         
16	Me’da-ichak yo‘llari muammolarida bemorlarga hamshiralik parvarishi	Tashxislash va davolanishning axamiyati. Tashxislash va davolanishda hamshiraning roli. Qusish turlari va sabablari. Me’da-ichak yo‘llari buzilishlarida kuzatiladigan simptomlar. Xukna o‘tkazish maqsadi, turlari, xukna va gaz chiqaruvchi naychani	4	2 N	2

		<p>qo'llash uchun ko'rsatma va moneliklar Qusayotgan bemorlarga yordam berish uchun kerakli jihozlarni tayyorlash. va bemorga ulay sharoit yaratish. Qusayotgan bemorlarga yordam berish va hamshiralik parvarishi. Me'dani yuvish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Ishlatilgan jihozlarni zararsizlantirish va yo'q qilish.</p> <p>Huqna o'tkazish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Huqna va gaz chiqaruvchi naychani qo'llash ko'nikmalarini va hamshiralik parvarishi.</p>	8	4 A	4
17	Sun'iy ovqatlantirishda bemorlarga hamshiralik parvarishi	<p>Me'da-ichak yo'llari buzilishlarida bemorni sun'iy ovqatlantirish usullari. Sun'iy ovqatlantirish uchun ko'rsatma va moneliklar. Sun'iy ovqatalantirishda kuzatiladigan va yuzaga keladigan asoratlar.</p> <p>Sun'iy ovqatlantirish muolajasini o'tkazish uchun qulay sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Sun'iy ovqatlantirish muolajasini o'tkazish, bemorni kuzatish va parvarish qilish. Zond, gastrostoma, rektal va parenteral yo'l orqali ovqatlantirish.</p>	3 6	2 N 4 A	1 2
18	Siydik ajralishi muammolarida bemorlarga hamshiralik parvarishi	<p>Siydik ajralish mexanizmi va siydik ajralishi funksiyasining buzilishi. Siydik qopini kateterlash maqsadi, turlari, ko'rsatma va monelliklar. Siydik ajralishi muammolarida bemorning siydik qopini kateterlash. Siydik qopini katetrlashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Siydik qopini katetrlash ko'nikmalarini va hamshiralik parvarishi. Ayollar va erkaklarga siydikdon tutish.</p>	3 6	2 N 4 A	1 2
19	Dori moddalarini yuborishda bemorlarga hamshiralik parvarishi.	Dori moddalar bilan davolash haqida tushuncha. Dori moddalarini yuborishda hamshiraning va boshqa mutaxassislarining ma'suliyatlari va huquqlari. Dori moddalarini yuborish usullari. Dori moddalarini nazorat qilish, tarqatish qoidalari va usullari. Dori moddalarini yuborish maqsadi va usullari. Dori moddalarini qo'llashda ko'rsatma va monelliklar. Dori moddalarini ta'siri natijasida yuzaga keladigan asosiy va nojo'ya ta'sirlar.	4	2 N	2

		Ko'rsatmalar varaqasidan dori moddalarini tanlash va ro'yxatga olish. Dori moddalarini qabul qilish uchun talabnomalar yozish. Dori moddalarini yuborish uchun bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddalarini peroral va sublingval usulda yuborish va hamshiralik parvarishi. Dori moddalarini tashqi qo'llashda bemorga sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddalarini tashqi qo'llash ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi. In'eksiya o'tkazish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddalarini yuborish ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi: teri ichiga, teri ostiga, mushak orasiga in'eksiya qilish usullari. Antibiotiklarni eritish, ampula va flakonlardan dori moddalarni tortib olish. Insulinni yuborish texnikasi va kerakli dozani tortib olish qoidasi. Moyli eritmalmalni qo'llash hususiyatlari. Dori moddasini tomir ichiga oqim bilan va tomchi usulida yuborish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Dori moddasini tomir ichiga oqim va tomchi usulida yuborish ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi. Ishlatilgan ashyolarni zararsizlantirish va yo'q qilish.	20	16 A	4
20	Ingalyatsiya va ajralmalarni so'rib olishda bemorga xamshiralik parvarishi.	Ingalyatsiya va ajralmalarni so'rib tashlashning maqsadi, ko'rsatma va monelliklari. Ingalyatsiya va ajralmalarni so'rish usullari. Ingalyatsiya va ajralmalarni so'rish uchun bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Ingalyatsiya va ajralmalarni so'rish ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi. Muolajadan keyingi kuzatuvlarni o'tkazish va yozuvlarda qayd qilish.	4 6	2 N 4 A	2 2
21	Soddalashtirilgan fizioterapiya usullari. Girudoterapiya, oksigenoterapiya.	Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarning maqsadi, turlari, ko'rsatma va monelliklari. Soddalashtirilgan fizioterapevtik muolajalarning o'tkazish usullari. Oksigenoterapiya va girudoterapiyani o'tkazishga ko'rsatmalar va monelliklar. Soddalashtirilgan	4	2 N	2

		fizioterapeutik muolajalarni o'tkazishda bemorga qulay sharoit yaratish va kerakli jihozlarni tayyorlash. Soddalashtirilgan fizioterapeutik muolajalarni o'tkazish ko'nikmalari (xantal, isitgich, muzli xaltacha, kompress) va hamshiralik parvarishi. Oksigenoterapiya va girudoterapiya o'tkazish uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Oksigenoterapiya va girudoterapiya o'tkazish ko'nikmalari (kislород berish, zuluk qo'yish) va hamshiralik parvarishi. Muolajadan keyingi kuzatuvlarni o'tkazish va yozuvlarda qayd qilish.	10	8 A	2
22	Laborator va instrumental tekshiruvlarda bemorga hamshiralik parvarishi.	<p>Laborator va instrumental tekshirish maqsadi, ko'rsatma va monellikkleri.</p> <p>Siydik va axlat tekshirish usullari. Me'da va 12-barmoq ichak suyuqligini tekshirish usullari.</p> <p>Surtma olish va balg'am yig'ish uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash.</p> <p>Surtma olish va balg'am yig'ish ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi.</p> <p>Siydik va axlat yig'ish uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Siydikni (umumiyl taxlil uchun, Nechiporenko, Zimniskiy, Addis-Kakovskiy, Amburje usullarida) va axlatni (umumiyl taxlil uchun, yashirin qon, gjija tuxumlarini aniqlash) uchun yig'ish ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi.</p> <p>Me'da va 12-barmoq ichakdan suyuqlik yig'ish uchun sharoit va kerakli jihozlarni tayyorlash. Me'da va 12-barmoq ichakdan suyuqlik yig'ish ko'nikmalari va hamshiralik parvarishi. Uy sharoitida kerakli taxlillarni to'g'ri yig'ish, o'z xavfsizligini taminlashda patronaj xamshirasining maslaxatlari.</p>	4 6	2 N 4 A	2 2
23	Hamshiralik ishidagi boshqaruv	Hamshiralik ishini boshqarish ta'rifi. Hamshiralik ishi boshqaruvi tushunchasi. Hamshiralik ishi boshqaruvi maqsadi va zarurligi. Hamshiralik xizmati va hamshiralik parvarishi menedjmenti. Hamshiralik ishi boshqaruvi jarayoni. Kasalxona tizimida tashkillashtirish tizimi va hamshiralik bo'limining vazifasi. Uzluksiz zaruriy ta'lim. Uzluksiz ta'lim	4	2 N	2

		maqsadi. Uzluksiz ta'limni olib borish. "Parvarish sifati" haqida tushuncha. Sifatni baholashning asosiy ko'rsatkichlari.			
24	Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishining xususiyatlari	<p>Terminal holat haqida tushuncha. Agonal oldi, agonal fazas, klinik va biologik o'lim haqida tushuncha. Terminal davrning turli xil kasalliklardagi davomiyligi. Poliativ parvarish haqida tushuncha.</p> <p>Xospis parvarish haqida tushuncha. Terminal davrda bemorlarda hamshiralik parvarishining maqsadi. Terminal parvarishda hamshiraning tutgan o'rni. Terminal davrdagi bemorning oilasiga uy sharoitida yordam ko'rsatishning kerakli ko'nikmalarini o'rgatish: bemor tanasi va tana qismlarining gigienasi: og'iz bo'shlig'i gigienasi, ko'zlar, qulqoq va burun gigienasi, bosh gigienasini saqlashda ko'rsatiladigan amaliy yordamni amalga oshirish.</p> <p>Bemorni ovqatlanadirishda hamshiralik parvarishi, fiziologik chiqaruvlar, faollik va dam olishda hamshiralik parvarishi</p>	3	2 N	1
25	Terminal davrdagi bemorlarda hamshiralik parvarishining etik masalalari va hamshiralik jarayonini yuritish	<p>Terminal davrdagi bemorlarni uy sharoitida parvarishlashda patronaj hamshirasining roli va vazifalari. O'limning mazmuni va konsepsiysi. Klinik va biologik o'lim belgilari nafas yo'llari obstruksiyasi sabablari.</p> <p>Terminal davrdagi bemorda hamshiralik jarayonini yuritish, muammoli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritish. Ma'lumot yig'ish va taxlil; parvarish muammosini aniqlash; parvarish rejasini tuzish; reja bo'yicha parvarishni amalga oshirish; natijani baholash.</p>	6	4 A	2
26	Terminal davrdagi bemorlarga va ularning oila a'zolariga parvarish qilish ko'nikmalarini o'rgatish	<p>Terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirish: arterial bosimni o'lchash, pulsni sanash, nafas olish tezligini aniqlash. Bemorning umumiyligi holatini baholash. Og'riqni baholash.</p> <p>Terminal davrda bemorlardagi kasallik belgilarini yengillashtirish.</p> <p>Nafas yo'llari obstruksiyasini va yurak to'xtab qolganini aniqlash. Nafas yo'llari obstruksiyasida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. O'pka-yurak reanimatsiyasini va o'pkning sun'iy ventilyatsiyasini o'tkazish.</p>	6	4 A	2

		O'YuRni o'tkazishda samarali belgilarni aniqlash. O'lim belgilarini aniqlash (qorachiqlar kengayishi, qorachiqlarni yorug'likka reaksiyasini tekshirish, qorachiqlarni xiralanishi, "mushuk ko'zi" simptomni). Murda bilan ishslash qoidalari. Murdani saranjomlashda hamshiraning vazifalari.			
		<b>Jami:</b>	<b>176</b>	<b>48 N 128 A</b>	<b>88</b>

### 3.O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol – javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

### 4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoev «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz» Toshkent – “O'zbekiston” 2018.
2. Shavkat Mirziyoev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir» Toshkent – “O'zbekiston” 2018.
3. Shavkat Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz» Toshkent – “O'zbekiston” 2016.
4. Shavkat Mirziyoev «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» Toshkent – – “O'zbekiston” 2017.
5. Zokirova K.O‘, Toxtamatova D.O‘ «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2019 yil.
6. 2. Tolkachyova O.V., Zinkovskaya I.V. «Osnovy sestrinskogo dela». Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 2012 yil.
7. H.I.Shukurov, S.Q.Qanoatov Jamoada hamshiralik ishi, Toshkent, 2010y
8. 3. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, O'zbekiston milliy nashriyoti, 2007 yil.
9. D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “Shoshilinch holatlar” Farg'ona, “Farg'ona nashriyoti”, 2005 yil.
10. Axmedov Sh.A.«Anatomiya i fiziologiya s patologicheskimi osnovami». Toshkent, Tasvir nashriyoti, 2009 god.
11. Ziyamutdinova G.X., Axmedov Sh.A.«Normal anatomiya va fiziologiya». Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2009 yil.
12. Uchebnaya programma i rukovodstvo po prepodavaniyu. (Razdely 9-13), Chast3, Tashkent, 2008 god.
13. Hamshiralik ishi ta'limini takomillashtirish markazi “Hamshiralik ishi asoslari” fanidan o'quv qo'llanmalari. 1-2 boblar. 2007 yil.
14. Karieva M.T., Maxmudova N.M., Karamatova Sh.A. «Reformirovanie

15. S.T.Tursunov, T.S.Nodirov Sog‘lom turmush tarzi, Toshkent, 2006y
16. zdravooxraneniya v Uzbekistane: problemy i zadachi». Tashkent, 2005 god.
17. Muxina S.A., Tarnovskaya I.I. «Osnovy sestrinskogo dela». Moskva, 2005 god.
18. Obuxoves T.P., Sklyarova T.A., Chernova O.V. «Osnovy sestrinskogo uxoda». Moskva, 2005 god.
19. Byulleten - «Assotsiatsiy i ob'edineniy meditsinskix sester v stranakh sentralno-Aziatskogo regiona» Tashkent, 2003 god.
20. «Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish». Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003 yil.
21. Chubakov T.Ch., Frike E.V., Xaliki V.«Osnovy sestrinskogo dela v semeynoy meditsine», I-tom

#### **Internet saytlari**

6. [www.med.uz](http://www.med.uz).
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
8. [www.medical.ru](http://www.medical.ru).
9. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz).
10. [www.tma.uz](http://www.tma.uz).
11. [www.tashpmi.uz](http://www.tashpmi.uz).
12. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
13. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz).
14. <http://bibliotekar.ru>.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING  
O'QUV DASTURI**

**5.71.03.01-“Hamshiralik ishi” mutaxassisligining**

**JAMOADA HAMShIRALIK IShI**

Kvalifikatsiyalar nomi: Umumiy amaliyot hamshiras

O'quv rejadagi tartib raqami: 3.03

Ajratilgan soat: 104

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



**Tuzuvchilar:** 1 – Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchisi: R. E. Giyasova

**Taqrizchilar:**

1 – Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi: Nigmatova.D.Q

34-oilaviy poliklinika bosh shifokori Yusupova Z.M.

## 1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

<b>O‘quv dasturining nomi</b>	<b>Jamoada hamshiralik ishi</b>
<b>Ajratilgan soat</b>	104
<b>Mavzular soni</b>	11
<b>Dasturning maqsadi</b>	<p><b>Jamoada hamshiralik ishi</b> modulini nazariy va amaliy mavzularga oid kasalliklarni har tomonlama o‘rganish, taxlil qilish bilim va ko‘nikmalarini egallash. Yuqumli kasalliklarni bir-biridan farqlash, amshiralik tashhisini qo‘yish, davolash, oldini olish va hamshiralik parvarishi bo‘yicha bilimlarni shakllantirishdir.</p>
<b>O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari</b>	<p><b>Jamoada hamshiralik ishi</b> modulidan nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o‘quvchilarning fanga oid bilimlarini tizimli yo‘lida umumlashtirish orqali sog‘lom turmush tarzi, salomatlik, kasallikni oldini olish va profilaktikasi to‘g‘risidagi nazariy bilimlarini takomillashtirish;</li> <li>- nazariy bilimlarini amaliyatga tadbiq etgan holda bevosita bemorlar bilan o‘zaro muloqat qilish, ularni ob’ektiv va sub’ektiv tekshiruvlari orqali yoki bemor kasallik tarixidan ko‘chirmalar, masalalar tahlil qilish orqali hamshiralik tashxisi to‘g‘risida aniq hulosalar chiqarish;</li> <li>- iustahkamlash orqali hamshiralarning turli shoshilinch holatlarda bilim va amaliy tayyorgarligini ta’minlashdan iborat.</li> </ul>
<b>Bilim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hamshiralikda parvarish qilish usullarini;</li> <li>- sog‘lom turmush tarzini shakllantirish usullarini;</li> <li>- hamshiralik jarayonini yoritib berishni;</li> <li>- bemor muammolarini aniqlashni;</li> <li>- uyga tashrif vaqtida onalarni o‘qishni;</li> <li>- jamoadagi hamshiralik ishining huquqiy va etikaviy masalalarini</li> </ul>
<b>Ko‘nikma</b>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining amaldagi qarorlari va Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruq va uslubiy tavsiyalari;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish asoslari;</li> <li>- jamoada hamshiralik ishi faoliyatini amalga oshirish QVP, OP ishini tashkil etishni bajarish;</li> <li>- jamoada hamshiralik ishi modulidan amaliy ko‘nikmalarni bajarish</li> </ul>
<b>O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan modul nomi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Anatomiya, fiziologiya va patologiya</li> <li>- Farmakalogiya va retseptura</li> <li>- Umumiy gigiena va ekologiya</li> <li>- Mikrobiologiya va epidemiologiya asoslari</li> <li>- Valeologiya</li> <li>- Dietologiya</li> <li>- Hamshiralik ishi</li> <li>- Jamoada hamshiralik ishi</li> <li>- Terapiyada hamshiralik ishi</li> <li>- Pediatriyada hamshiralik ishi</li> <li>- Teri va tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi</li> </ul>

	- Tibbiyot psixologiyasi
<b>O‘qitishning tashkiliy shakli</b>	N – nazariy A – amaliy
<b>Dasturga qo‘yilgan talab</b>	Majburiy
<b>O‘qitish tili</b>	Guruhgta tayinlangan dars tili asosida
<b>Baholash tartibi</b>	Joriy baholash tartibiga asoslanib
<b>O‘quvchilar ning bilim va ko‘nikmalarini baxolash</b>	Yozma, og‘zaki, savol – javob, munozara, test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

## 2.O‘quv dasturi mazmuni

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Mavzuning qisqacha mazmuni</b>	<b>jami</b>	<b>O‘qitishning tashkiliy shakli</b>	<b>Mustaqil ta’lim</b>
1.	<b>Jamoada hamshira lik ishi fanining maqsad va vazifalari. Axoli o‘rtasida hamshira lik ishini tashkil qilish.</b>	<p>Jamoat sog‘lig‘ini saqlashning rivojlanish tarixi. Jamoadagi hamshiralik ishining maqsadlari va vazifalari, sog‘liqni saqlash tizimi va jamoadagi tibbiyotning xususiyatlari, Jamoadagi hamshiralik ishining huquqiy va etikaviy masalalari, jamoada hamshiralik ishini amalga oshirish jarayonini.</p> <p>Jamoada hamshiralik ishini rivojlantirishga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Maxkamasi Qarorlari va Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruq va uslubiy tavsiyanomalari. SSVning 13.02.2017 yildagi “DPM larda tibbiy hujjatlarni yuritishni muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi 60-sonli buyrug‘i. Jamoada sog‘liqni saqlash tizimi. Jamoada hamshiralik ishini amalga oshirish bosqichlari. Jamoadagi hamshiralik ishining faoliyat joylari. Uy sharoitida hamshiralik jarayonini qo‘llashni, jamoadagi aholini sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashda tibbiyot hamshirasining o‘rni, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish usullari. Jamoada tibbiyot hamshirasining etika va deontologiyasi. hujjatlarini yuritish va isjni baholash.</p>	4	N-2	2
2.	<b>Jamoada hamshira lik ishini tashkil</b>	Aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash va kasalliklarni oldini olish asoslari. Salomatlik ko‘rsatkichlari. Kasalliklarni oldini olish bosqichlari. Jamoada tibbiy madaniyatni shakllantirish va sanitar oqartuv	9	N-2	

	<b>etishda hamshira ning o‘rni</b>	<p>ishlarini olib borish. Tibbiyot hujjatlarini yuritishni o‘rganadi. Bemorlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar bilan suhbatlar o‘tkazishni o‘rganadi.</p> <p>Uyga tashrif buyurishni rejalshtirish. Patronaj hamshirasi “sumkasini” tayyorlash. Uyga tashrif buyurish paytida hamshiralik jarayonini qo‘llash. Uy sharoitida tibbiy muolajalarini o‘tkazish. Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish. patronaj hamshirasi “sumkasini” tayyorlash. o‘yga tashrif qilishga tayyorlanish va uning muhim holatlarini o‘rganadi. jamoadagi aholi salomatligi va hamshiralik parvarishidagi muammolarni aniqlashni o‘rganadi</p> <p>Axoli sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha tadbirlar tashkil etish. Ob‘ekt va uning oila a’zolari haqida ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish. Jamoadagi aholi salomatligi va hamshiralik parvarishidagi muammolarni aniqlashni. bemorlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar bilan suhbatlar o‘tkazishni. Uyga tashrif buyurganda hamshiralik jarayonini qo‘llash.</p>		A-4	3
3.	<b>Jamoada kasallik larning oldini olish va axoli salomatli gini yaxshilash da hamshira ning o‘rni</b>	<p>Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘ini. Sog‘liqni ta’minlash va kasalliklar oldini olishni besh bosqichi. Jamoada uyushmagan qatlamni dispanser ko‘rigidan o‘tkazish.</p> <p>Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inining faoliyat sohalari. Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inining asosiy 8 ta faoliyat sohasi (Alma-Ata deklaratsiyasi 1980). SSVning 6.01.2016 yildagi “2016 yilda axoli orasida kasalliklarni oldini erta aniqlashni hamda profilaktik va chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘riklarni o‘tkazishni tashkillashtirish to‘g‘risida”gi 6-sonli buyrug‘i. Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘iniga oid tibbiy statistika ma’lumotlari (aholi salomatligi holati, kasallanish ko‘rsatkichlari, kasallanish tuzilmasi, asosiy ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar). Kasalliklarni oldini olishning 5 ta bosqichi. Sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘ini faoliyat ko‘rsatadigan joylari(jamoada sog‘liqni saqlash,uyda, maktabgacha bo‘lgan va maktab muassasalarida, ishlab chiqarishda). Uyushmagan aholi qatlamini dispanserizatsiya qilish maqsadi va vazifalari. Uyushmagan aholi qatlamini dispanserizatsiya qilish usullari. Uyushmagan aholi qatlamini dispanserizatsiya qilishda tibbiyot hamshirasining roli.</p> <p>Uyushmagan aholi qatlamini aniqlash. Uyushmagan aholini turli davrlarda tibbiy</p>	9	N -2	

G.M.Nig'matova TTA "Akusherlik va ginekologiya" kafedrasи dotsenti

**Tashki taqrizchi:**

D.T.Fayzieva 8-tug'ruq kompleksi maslahatxonasi bosh hamshirasи

## 1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

<b>O‘quv dasturining nomi</b>	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi
<b>Ajratilgan Soat</b>	138
<b>Mavzular soni</b>	16
<b>Dasturning maqsadi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-“Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” moduli kishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, xotin-qizlar maslahatxonalarida va tug‘ruq majmularida ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislar tibbiyot hamshiralarini tayyorlash;</li> <li>-homilador, tug‘uvchi va tukkan ayollarning fiziologik xususiyatlari, ularni parvarishi haqida bilimlarini shakllantirish;</li> <li>-xomilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning kasalliklarda patologik holatlarida yordam ko‘rsatish;</li> <li>-hamshiralik parvarishi haqida tushuntirish;</li> <li>-ginekologik kasalliklar va bu kasalliklarda ayollarni parvarish qilish xususiyatlari haqida bilimlarini shakllantirish;</li> <li>-aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish haqidagi bilimlarini shakllantirish.</li> </ul>
<b>O‘zlashtirish (o‘qitish) Natijalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-“Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” moduli homilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning fiziologik xususiyatlari, ularni parvarishi haqida muammolarini o‘z vaqtida aniqlashni o‘rgatish;</li> <li>-homilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning kasalliklarda patologik holatlarida yordam ko‘rsatish, bemorlarga hamshiralik parvarishini amalga oshirishni o‘rgatish;</li> <li>-ginekologik kasalliklar, va bu kasalliklarda ayollarni hamshiralik parvarishini o‘rgatish;</li> <li>-aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish haqidagi bilimlarini o‘rgatish;</li> <li>-yangi pedagogik texnologiyalar asosida mavzular bo‘yicha bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;</li> <li>-fanni boshqa tibbiyot fanlari uzviy bog‘liklikka o‘rgatish.</li> </ul>
<b>Bilim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-Akusherlik va ginekologiyada hamshiralikishi moduli to‘g‘risida tushuncha;</li> <li>-onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid davlat qonunlari va qarorlari;</li> <li>-akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalarida hamshiraning tutgan o‘rni, vazifalari, ma’naviy qiyofasi;</li> <li>-epidemiyaga qarshi sanitar-gigienik tartiblar;</li> <li>-ayolning tashqi va ichki jinsiy a’zolari tuzilishi va vazifalari;</li> <li>-ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlari;</li> <li>-homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi;</li> <li>-homiladorlik davrida hamshiralik parvarishi;</li> <li>-patologik homiladorlikda hamshiralik parvarish;</li> <li>-ekstragenital kasalliklarda hamshiralik parvarish;</li> <li>-tug‘ruqda hamshiraning vazifalari va parvarishini;</li> </ul>

	-chilla davri fiziologiyasi va patologiyasida hamshiralik parvarishini; -ginekologik bemorlarni tekshirish usullari; -reproduktiv yoshdagи ayollar salomatligini muhofaza qilishda hamshiralik parvarishini <b><i>biladilar</i></b> .
<b>Ko‘nikma</b>	- ishlatalidigan asbob-anjomlarni zararsizlantirish; -dezinfeksiyalovchi eritmalarни tayyorlash va qo‘llash; -biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillash; -tashqi jinsiy a‘zolarni ko‘zdan kechirish; -qin ko‘zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlashni; -chanoqning tashqi o‘lchamlarini o‘lhash; -tashqi akusherlik amallarini o‘tkazish; -homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklar rivojlanishi havfi bo‘lgan homiladorlarni aniqlash; -ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish; -ekstragenital kasalliklarda oqilona ovqatlanish bo‘yicha tavsiyanomalar berish; -tug‘ruqda tuguvchi ayolni parvarish kilish; -chilla davrida va chilla davrini patologik kechishida ayolni parvarishi; -ginekologik bemorlarni tekshirishda hamshiraning vazifalari; - reproduktiv yoshdagи ayollar salomatligini muhofaza qilishda bajariladigan ishlarda hamshiraning vazifalari xakida ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.
<b>O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi</b>	Tibbiy terminologiya va lotin tili Anatomiya, fiziologiya va patologiya Farmakologiya va retseptura Umumiy gigiena va ekologiya Valeologiya Jamoada hamshiralik ishi Pediatriyada hamshiralik ishi Bolalar yukumli kasalliklari.Profilaktik emlash. Hamshiralik ishi Terapiyada hamshiralik ishi Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik ishi Teri va tanosil kasalliklarida hamshiralik ishi Yuqumli kasalliklar
<b>O‘qitishni tashkiliy shakli</b>	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim;
<b>Dasturga qo‘yilgan talab</b>	Majburiy
<b>O‘qitish tili</b>	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
<b>Baholash tartibi</b>	Joriy baholash tartibiga asoslanib
<b>O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash</b>	Yozma, og‘zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

## 2. O'quv dasturi mazmuni

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Mavzuning qiskacha mazmuni</b>	<b>Jami</b>	<b>O'qitishning tashkiliy shakli</b>	<b>Mustakil ta'lim</b>
1.	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi faniga kirish. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalarida tibbiyat hamshirasining o'rni.	Akusherlik va ginekologiya haqida tushuncha. Onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid davlat qonunlari va qarorlari xaqida malumot oladilar. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalarida hamshiraning tutgan o'rni, vazifalari, manaviy qiyofasi. Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi tarkibi, xususiyatlari. Aseptika va antiseptika xaqida tuqquncha. Epidemiyaga qarshi sanitargigienik tartiblar xaqida malumot oladilar. Qo'lni yuvish (zararsizlantirish). Ishlatiladigan asbob-anjomlarni zararsizlantirishni amalga oshiradilar. Bog'lov materiallarini tayyorlashni o'rganadilar. Dezinfeksiyalovchi eritmalarini tayyorlash va qo'llash. Biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillashni amalga oshiradilar.	2  4	2 N  4 A	1  2
2	Ayollar jinsiy a'zolarining anatomiysi va fiziologiyasi.	Ayolning tashqi va ichki jinsiy a'zolari tuzilishi va vazifalari xaqida malumot oladilar. Qinning tozalik darajalari o'rganadilar. Mo'tadil (normal) hayz ko'rish davri. Ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlari xaqida malumot oladilar.  Tashqi jinsiy a'zolarni ko'zdan kechirishni o'rganadilar. Qin ko'zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlashni o'rganadilar.  O'quvchilar bemorlardan anamnez yig'adilar, o'qituvchi nazoratida bemirlarni umumiy tekshirishda ishtirok etadilar, ko'rikka kelgan ayollarni tekshirish jarayoni o'tkazilayotgan vaqtida kuzatib turadilar. Ishlatilgan asbob anjomlarni zararsizlantirishda yordam beradilar. Chanoqning tashqi o'lchamlarini	2  8	2 N  8A	2  4

		o‘lchaydilar.			
3.	Homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi. Homiladorlik Davridahamshiralik parvarishi	<p>Urug‘lanish va payvandlanish. Ayol organizmida homiladorlik tufayli ro‘yberadigan fiziologik o‘zgarishlar. Tashqi muhit zararli omillarining embrion va homilaga ta’siri, homila rivojlanishidagi kritik davrlari xaqida malumot oladilar. Homiladorlik belgilarini va muddatini aniqlash. Balog‘atga yetmaganlarda homiladorlik muammolarini o‘rganadalar. BTSYo muassasalarida homiladorlarga antenatal parvarishni ta’minlash xaqida malumot oladilar. “Onalar maktabi”da homiladorlar bilan shug‘ullanish dasturini (BTSYo muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishi va tibbiy yordam ko‘rsatish STANDARTI (YuNISEF)).</p> <p>Homilador va tuqqan ayol shaxsiy varaqasining pasport qismini to‘ldirish. Al mashuv varaqasining pasport qismini to‘ldirish. Patronaj varaqasini to‘ldirish. Homiladorlarni erta dispenser kuzatuviga olishni (homiladorlikning 12 chi haftasigacha) va uyda patronaj nazoratini muntazamligini ta’minlash. Homilador ayollarni tana vaznini va bo‘yini o‘lchashni o‘rganadilar. Tashqi akusherlik amallarini o‘tkazish. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar. Xomilaning yurak urishini tekshirish va uni baholash, qorin aylanasini o‘lchash, bachardon tubi balandligini o‘lchashni o‘rganadalar.</p> <p>Gravidogramma rasmiylashtirish, xomilador ayollarda Solovev indeksini aniqlash. Homiladorlik va tug‘ruq muddatini aniqlash. Sut bezlarini emizishga tayyorlashni amalga oshiradilar.</p>	4	4 N	2
4.	Patologik homiladorlikda hamshiralik ishi.	<p>Homiladorlik patologiyasining asosiy turlari. Homiladorlarni quşishini darajalari xaqida malumot oladilar. Homiladorlarni quşishi kelib chiqish sabablari, klinikasi va darajalarini o‘rganadilar. Homiladorlik gipertenziyasi va gipertenziv sindromi haqida tushuncha xosil qiladilar. O‘z vaqtida kasalxonaga yotqizmaslik oqibatlari xakida tushuncha oladilar. Homiladorlar gipertenziyasi kelib chiqish sabablari, klinikasi va darajalari. Homiladorlikni</p>	8	8A	4

		<p>patologik kechishi bo‘yicha xavfi yuqori guruhga ajratish va uning ahamiyati xaqida tushuncha oladilar.</p> <p>Homiladorlik patologiyalarida hamshiralik tashhisini o‘z vaqtida aniqlashni amalga oshiradilar. Dispanser nazoratida bo‘lgan homiladorlar hujjatlarini olib borish.Homiladorlar quisishining og‘ir turida yordam berish.Gemodinamik varaqani to‘lg‘azish. Yashirin shish belgilarini aniqlashni o‘rganadilar. Homilador ayollarni tana vaznini o‘lchash.Homilador ayollarni arterial bosimini o‘lchashni o‘rganadilar.Bir soatlik siydiq miqdorini aniqlash. Siydiqda oqsilni aniqlash.Siydik qopini katetarizatsiya qilishni o‘rganadillar. Eklampsiya hurujida shifokorgacha 1 yordam berish. Preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam ko‘rsatishni amalga oshiradilar. Teri orasiga, mushak orasiga va vena ichiga dori moddalarini yuborishni o‘rganadilar.Suyuqlikni parenteral yuborish uchun sistemani to‘ldirishni o‘rganadilar.</p>	8	8 A	4
5.	Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Ulardahamshiralik parvarishining xususiyatlari.	<p>Turli xil ekstragenital kasalliklari bor ayollarda homiladorlik va tug‘ruqning o‘tishi xususiyatlari xaqida malumot oladilar. Yurak-qon tomir va buyrak kasalliklarida homiladorlik va tug‘ruqning kechishi. Endokrin kasalliklarda homiladorlik va tug‘ruqning kechishi xaqida mlumot oladilar. Anemiya kasalligida homiladorlik va tug‘ruqning kechishi. Xavo-tomchi yo‘li orqali yuqadigan kasalliklarda homiladorlikning va tug‘ruqning kechishi. Rezus-kelishmovchilik va gemolitik kasallik tushuncha xosil qiladilar. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish. BTSYo muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishini va tibbiy yordam ko‘rsatishni o‘rganadilar(YuNISEF). O‘qituvchilar o‘quvchilarga bemorlarni parvarish qilish xususiyatlarini va ahamiyatini o‘rgatadi. Sog‘liqni Saqlash Vazirligining 2012 yil 18 maydagi 137-sonli buyrug‘iga 2-sonli ilovasiga ko‘ra “Homiladorlar uy varaqasini”ni standart asosida to‘ldirishni o‘rgatish(YuNISEF).Ekstragenital</p>	2	2 N	1

		kasalliklarda oqilona ovqatlanish bo'yicha tavsiyanomalar berishni o'rganadilar. Infektion va havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan kasallikkarni oldini olish o'rganadilar. Siydkni turli xil sinamalarga yig'ishni o'rganadilar. Dori vositalarini parenteral yo'l bilan yuborish. Xomila gipoksiyasi profilaktikasini o'tkazishni o'rganadilar. Homilador ayollarga namlangan kislorod berish. Ekstragenital kasallikkari bor homiladorlar ayollarni kuzatish, davolash va reabilitatsiyasi davrida parvarish yo'l-yo'rig'i bilan tanishadilar.			
6.	Tug'ruqda hamshiraning vazifalari va parvarishi	<p>Tug'ruq to'g'risida tushunchani xosil qiladilar. Tug'ruq davrlari va tug'ruqning haydovchi kuchlari. Tug'ruqning klinik kechishi xaqida malumot oladilar. Tug'ruqqa ayolarni psixoprofilaktik tayyorlash va tug'ruq vaqtida ona va bola uchun zarur bo'lgan parvarish buyumlarini tayyorlash. Tug'ruqning I, II, III-davrlarining kechishi. Tug'ruqni 3 davrini faol olib borish. Tug'ruqni og'riqsizlantirish. Tug'ruqni zamonaviy olib borishda ona bolani "teri—teriga" kontaktini ta'minlash, chaqaloq gipotermiyasini oldini olishda hamshiraning parvarishi. Samarali perinatal parvarishni tashkil etishni o'rganish. (YuNISEF)</p> <p>Tug'ruq tarixi va chaqaloqning rivojlanish tarixi varaqasining pasport qismini to'lg'azishni o'rganish. Tug'adigan ayol uchun o'rinn-joy va chaqaloq uchun kiyim-kechaklarni, parvarish anjomlarini tayyorlashni o'rganish. Tug'uvchi ayolda dard kuchi va davomiyligiga baho berishni amlga oshirish. Tug'ruqqa homilador ayolni psixoprofilaktik tayyorlashni. Chaqaloq tug'ilgach, issiqlik zanjirini ta'minlashni, chaqaloqning birlamchi artib-tozalashni kuzatadilar, uning ahvolini Apgar shkalasi bo'yicha baholaydilar. O'qituvchi o'quvchilarni asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarni tiriltirish usullarini ko'rsatadi: nafas markazini qo'zg'atish, kindik venasi orqali dori moddalarni yuborish, sun'iy nafas berish va hokazolarni o'rganadilar. Tug'ruqni uchinchi davrini faol boshqarishni o'rganadilar. Yo'ldoshni ko'chganlik</p>	4	4 N	2

		belgilarini o‘rganadiar.Yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashni o‘rganadilar.			
7.	Akusherlik qon ketishlari va ularda shifokorgacha shoshilinch yordam.	Akusherlik qon ketishlari tasnifini. Xomiladorlikning 1- va 2-yarmida qon ketish turlarini.Akusherlik shikastlari haqida tushunchani. Yo‘ldosh tug‘ilish davri va kichik chilla davri patologiyalari.Terminal holatlarda shoshilinch yordamni o‘rganadilar.  Pulsni sanash va baholash.Bola tashlashda yordam ko‘rsatish uchun asbob-anjom tayyorlash. Bachadonning qisqaruvchanlik darajasini aniqlashni o‘rganadilar. Yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashni o‘rganadalar. Kon ketganda shifokorgacha 1 yordam berish. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.	2 8	2 N 8A	1 2
8.	Chilla davri fiziologiyasi va patologiyasida hamshiralik parvarishi.	Chilla davri xaqida tushuncha. Jinsiy a‘zolar involyusiyasi va loyixalar tabiat. Chaqaloqlarni ona suti bilan boqishning ahamiyati. Tuqqan ayol gigienasi hususiyatlari va hamshiralik parvarishi xakida tushuncha oladilar. Hamshiralik tashxisini o‘z vaqtida aniqlashni o‘rganadilar. Chilla davri patologiyasi xaqida tushuncha berish. Chilla davrida uchraydigan septik kasalliklar ularni davolash oldini ollish xaqida malumot oladilar, hamshiralik parvarishini o‘rganadilar.  Chilla davri bo‘limining epidemiyaga qarshi sanitар-gigienik tartib qoidalari,tuqqan ayolni va uning sut bezlarini parvarishlashni o‘rganadilar. Ko‘krak suti bilan emizish bo‘yicha maslahat borishni o‘rganadilar. (YuNISEF).Chot sohasida choklari bor ayollarni parvarishlash xususiyatlari, ovqatlanishi, badantarbiyaga, chilla davri gigienasiga ahamiyat berish, operatsiya bo‘lgan ayollarni parvarishlash qilish xususiyatlari bilan tanishadilar. Tuqqan ayolni tana haroratini o‘lchash, tuqqan ayollar bilan «Mastit profilaktikasi»,	2 8	2 N 8 A	1 4

		«Chaqaloqni to‘g‘ri emizish» mavzusida suhbatlar tayyorlab o‘tkazadilar.			
9	Muddatiga yetib tug‘ilgan va chala tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishda hamshiraning vazifalari.	<p>Chaqaloqlarning anatomo-fiziologik xususiyatlari. Chaqaloqlar bo‘limi ishining tashkil qilinishi va epidemiyaga qarshi sanitariya-gigienik tartib qoidalari xaqida tushuncha oladilar. Chaqaloqlarni parvarish qilish xususiyatlari, xavfsiz immunizasiya, profilaktik emlshlar, BSJ o‘tkazish tartibi va mohiyati xaqida malumot oladilar. Shifoxonalarda bolaga do‘stona munosabatda bo‘lish tashabbusini xaqida malumot oladilar. Ona sutining afzalliklari, ko‘krak suti bilan boqishning 11 qadami xaqida malumot oladilar. Chala tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarishlash xususiyatlari xaqida malumot oladilar.</p> <p>Chaqaloqni Apgar shkalasi bo‘yicha baholashni o‘rganadilar. Chaqaloqlarni erkin yo‘rgaklashni o‘rganadilar. Chaqaloqlar vaznini va bo‘yini o‘lchashni. Chala tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishni, Kyuvezda chala tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilishni o‘rganadilar. Chaqaloqlarni emizishga yordam berishni amalga oshiradilar. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.</p>	2	2 N	1
10	Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari.	<p>“Ginekologiya” fani haqida tushuncha. Ginekologiya bo‘limining tarkibi, hujjatlari, ishining tashkil qilinishi xaqida malumot oladilar. Ginekologik bemorlarni asosiy va qo‘srimcha tekshirish usullarini xaqida malumot oladilar. Hamshira tashxisini o‘z vaqtida aniqlashni o‘rganadilar.</p> <p>Ginekologiya bo‘limiga kelganlarning kasallik tarixi varaqasining pasport qismini to‘ldirishni, qabul qilingan bemorni sanitariya tozalovidan o‘tkazishni o‘rganadilar. Bemorlarga yo‘llanmalar yozib berishni, ginekologik bemorlarni qo‘srimcha tekshirish usullariga tayyorlashni o‘rganadilar. Asboblarni sterillashga tayyorlashni amalga oshiradilar. Ikki qo‘llab tekshirish, qin ko‘zgulari orqali qin va bachardon bo‘ynini tekshirishni o‘rganadilar. O‘quvchilar ginekologik bemorlarni parvarishlashda ishtirok etadilar.</p>	4	4A	2

11	Hayz faoliyatining buzilishida hamshiralik parvarishi.	<p>Hayz faoliyati buzilishining tasnifi.Funksional-diagnostika testlari haqida tushunchaoladilar. Hayz faoliyati buzilishida shoshilinch yordam ko'rsatish xaqida malumot oladilar.Hayzning og'riqli bo'lishi, sabablari, klinikasi, profilaktikasi. Shaxsiy gigienaga rioya qilish va sog'lom turmush tarzining ahamiyatini o'rgatishda hamshiraning vazifalari xaqida malumot oladilar.</p> <p>Bazal haroratni o'lchashni o'rganadilar.Ko'z qorachig'i simptomini aniqlashni o'rganadilar.Hayz ko'rish faoliyati buzilishida hamshiralik jarayonini amalga oshirishni o'rganadilar.«Kirq bo'g'in» simptomini aniqlashni o'rganadilar.</p>	2	2 N	1
12	Ayollar jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	<p>Jinsiy a'zolarning yallig'lanish kasalliklarining tasnifi. Kasallik qo'zg'atuvchilari va ularning tarqalish yo'llari.Jinsiy a'zolarning yallig'lanish kasalliklari klinik kechishi, davosi va oldini olish xakida malumot oladilar.</p> <p>Qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni o'rganadilar. Qin vannachalarini o'tkazishni o'rganadilar. Qinni chayishni o'rganadilar. Qinga malhamli tamponlarni qo'yishni o'rganadilar. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.</p>	4	4 A	2
13	Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarda hamshiralik parvarishi.	<p>Jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklarning qo'zg'atuvchilari va ularning tarqalish yo'llari, klinikasi va diagnostikasi xaqida malumot oladilar. Infeksiyalanish havfi yuqori bo'lgan guruhlarni aniqlash, kasalliklar profilaktikasi xaqida malumot oladilar. OITS-orttirilgan immun tanqisligi sindromini yuqish yo'llari, kasallikning asosiy klinik belgilarini, oldini olish choratadbirlari xaqida malumot oladilar. Homilador ayollarda oivni erta aniqlashni,oiv infeksiyali onalar va ularning bolalariga tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari xakida malumot oladilar.</p> <p>Aholi orasida JAYUK oldini olish bo'yicha sanitar-targ'ibot ishlarini o'tkazishni o'rganadilar. Zaxm va so'zak kasalligi aniqlangan bemorlar haqida teri-tanosil</p>	2	2 N	1

		dispanseriga xabarnoma yuborishni o‘rganadilar. Qindan bakteriologik va bakterioskopik tekshirish uchun material olishni o‘rganadidir. <i>Ishlatilgan asboblarni sterillashga tayyorlashni</i> o‘rganadilar. Dezinfeksion eritmalar tayyorlashni, parenteral muolaja o‘tkazishda shaxsiy himoya choralar qo‘llashni o‘rganadilar.			
14	Ayollar jinsiy a’zolarining o‘sma oldi va o‘sma kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	Xavfli va xavfsiz o‘smlar haqida tushuncha oladilar. O‘sma oldi kasalliklari haqida tushuncha oladilar. Bachadon bo‘yni saratoni haqida tushuncha va uni oldini olishni, PAP-test xaqida malumot oladilar. Ko‘krak bezi saratoni haqida tushuncha va uni oldini olishni to‘g‘risida malumot oladilar. Ko‘krak bezini mustaqil tekshirishni o‘rganadalar. Bachadon bo‘shlig‘idan diagnostika maqsadida qirma olish uchun asbob-anjomlarni tayyorlashni o‘rganadilar. Bemorlarni turli tekshirish usullariga tayyorlashni o‘rganadilar. Qin orqali qilinadigan operatsiyalarga bemorlarni tayyorlash. Qorin bo‘shlig‘i orqali qilinadigan operatsiyaga bemorlarni tayyorlashda katnashadalar. Bemorlarni operatsiyadan so‘ng parvarish qilishni o‘rganadalar. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.	2 4	2 N 4 A	1 2
15	Klimakterik va keksalik davrlarida hamshiralik parvarishi. Klimakterik sindrom.	Klimakterik davr haqida tushuncha oladalar. Klimakterik davrda tuxumdonda bo‘ladigan o‘zgarishlar. Jinsiy gormonlarning kamayishi natijasida organizmdagi o‘zgarishlarni ro‘y berishini xaqida malumot oladilar. Klimakterik sindrom tushunchasini o‘rganadilar.	2 2	2 N 2 A	1 1

16.	Reproduktiv yoshdagи ayollar salomatligini muhofaza qilishda hamshiralik parvarishi. Kontrasepiv vositalarning zamonaviy usullarini qo'llashda hamshiraning vazifalari.	O'zbekistonda reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar. Tug'ish yoshidagi ayollarni salomatligi, «Sog'lom onalik va otalik» tushunchasi xakida malumot oladilar. Balog'atga yetmasdan turmushga chiqish va homilador bo'lishning zararli oqibatlari. Reproduktiv, fertil davrda hamshiralik parvarishi. Kontrasepiv vositalar tasnifini va ulardan foydalanish qoidalari xakida malumot oladilar. Gormonal, tabiiy, bachardon ichi vositalari(BIV), to'siq usullarini, spermitsidlarva jarrohlik usullari haqida tushuncha, ularni ta'sir mexanizmi, afzalliklari va kamchiliklarini o'rganadalar. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.	2	2 N	1
		<b>Jami:</b>	12	12 A	6
			<b>138</b>	<b>138 N 36 A 102</b>	<b>69</b>

#### 4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

##### Asosiy adabiyotlar:

- Shavkat Mirziyoev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
- Shavkat Mirziyoev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir" Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
- Shavkat Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"Toshkent – "O'zbekiston"-2016.
- Shavkat Mirziyoev "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent – "O'zbekiston"-2017.
- Ya.N. Allayorov."Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi" Toshkent 2016
- Ya.N. Allayorov "Akusherlik" Toshkent, 2008
- M.A.Fozilbekova. X.S.Zaynitdinova. N.A.Nurmatova "Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi" Toshkent, 2007
- M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova "Ginekologiya" Toshkent, 2007.

##### Qo'shimcha adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni Saqlash Vazirligining BTSYo muassasalarida homiladorlarga antenatal parvarish va tibbiy yordam ko'rsatish STANDARLARI (2015)
- O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni Saqlash Vazirligining 2015 yil 25 martdagи 123-sonli "OIV infeksiyasini oldini olish chora tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida " gi buyrug'i
- "Xavfsiz immunizatsiya" dasturi bo'yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. 2014 (YuNISEF)..

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 1avgustdagи i “2014-2018 yillarda O‘zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar bolalar va o‘s米尔ар sog‘lig‘ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to‘g‘risida ” 2221-sonli qarori.

5.“Effektivnyiy perinatalniy uxod. Akusherstvo(Integrirovannoe vedenie beremennosti i rodov) 2014 (YuNISEF).

6.“Sovershenstvovanie uslug oxranы materenstva i detstva v Uzbekistane” (YuNISEF).

7. “Qiz bolalarni o‘sishini baholash va kuzatish hamda ko‘rsatkichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish”. O‘quv kursi. Toshkent-2009 yil. (YuNISEF).

8. “Oilada tibbiy ma’naviyatni oshirish, ayollar sog‘lig‘ini mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalashning ustivor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

9. “Yod tanqisligini oldini olish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ” . 2007 yil.

11.Osnovnayadorodovaya, perinatalnaya i postnatalnayapomoш. Materialы uchebnogo seminara.VOZ

12.Prikaz MZ RUz «Ob organizatsii i obespechenii antenatalnogo uxoda i okazaniya meditsinskoy pomoshi beremennym v uchrejdeniyax pervichnoy mediko-sanitarnoy pomoshi»

13.Effektivnaya perinatalnaya pomoshi i uxod. Rukovodsvo VOZ. 2007 UNFPA

14.Akusherstvo. Uchebnoe posobie dlya obucheniya akusher-ginekologov, neonatologov akusherok i meditsinskix sestyor rodilnixstatsionarov.MZRUz

15.Ya.N.Allayorov, D.O‘.Yusupova, F.Q.Asqarova “Akusherlikdan amaliy ko‘nikma va muolajalar” Samarqand-2007 yil.

16. “Ona va bola salomatligi” (risola) “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent-2007 yil.

15.“Ko‘krak suti bilan boqish (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2007 yil..

17. “Ko‘krak suti bilan boqish bo‘yicha maslahat olib borish o‘quv kursi” o‘qituvchilar uchun qo‘llanma. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. Toshkent-2007 .

18. Ya.N.Allayorov “Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya” Toshkent , “Istiqlol” nashriyoti 2005 yil

19.“Bemirlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish” Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, Toshkent-2003 yil.

20. Rukovodstvo po profilaktike transmissii VICh- infeksii ot materi k rebyonku 2003

21. V.I.Bodyajina, “Akusherlik” Meditsina, 2000

### **Internet saytlar:**

www:uzssgzt.uz,

www: med.uz.,

www:markaz.uz,

lex.uz, <http://www.ru/corr>.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING  
O'QUV DASTURI**

**5.71.03.01-“Hamshiralik ishi” mutaxassisligining**

**ASAB KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI**

Kvalifikatsiya nomi: Umumiy amaliyot hamshirasi.

O'quv rejadagi tartib raqami: 3.09.

Ajratilgan soat: 72

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



**Tuzuvchi:**

Tuyeva Nodira Qo'shshiyevna

1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Yunusdjanova Zohida  
Sultonovna

1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

X.T.Miraxmedova

TTA, 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi  
kafedrasi mudiri, t.f.d, dotsent

## 1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

<b>O‘quv dasturining nomi</b>	Asab kasalliklarida hamshiralik ishi
<b>Ajratilgan soat</b>	48
<b>Mavzular soni</b>	6
<b>Dasturning maqsadi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o‘quvchilarning fanga oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali bemorda mustaqil ravishda turli tekshiruvlarni mustaqil o‘tkazib, bemorning umumiyligi holatini baholay olishiga zamin yaratish;</li> <li>• nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq etgan holda bevosita bemorlar bilan o‘zaro muloqot qilish, ularni ob’ektiv va sub’ektiv tekshiruvlari orqali yoki bemor kasallik tarixidan ko‘chirmalar, masalalar tahlil qilish orqali hamshiralik tashxisi to‘g‘risida aniq xulosalar asosida hamshiralik jarayonini amalga oshirishga zamin yaratish;</li> <li>• umumiyligi amaliyat hamshirasini tayyorlashda asab kasalliklarining etiologiyasi, klinik belgilari, diagnostikasi, davolash usullari va oldini olish choralarini amalga oshirishga zamin yaratish;</li> <li>• asab kasalliklarida bemor ahvolini to‘g‘ri baholab, shifokorgacha bo‘lgan shoshilinch yordam tadbirlarini yuqori malakada ko‘rsata oladigan, muolaja va ko‘nikmalarni bajara oladigan umumiyligi amaliyat hamshirasini shakllantirish.</li> </ul>
<b>O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- asab kasalliklarining asosiy xususiyatlari, tekshirish usullari bo‘yicha bilim, hamshiralik parvarishi hamda shifokorgacha bo‘lgan tez tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari, reanimatsiya hamda davolash bo‘limlari, oilaviy poliklinika shifokor xonasida ishlash kompetensiyasiga ega bo‘ladilar.</li> </ul>
<b>Bilim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- asab kasalliklari fanining rivojlanish tarixi va xususiyatlari;</li> <li>- bemorlarni bevosita va asbob-uskunalar yordamida tekshirish usullari;</li> <li>- periferik asab tizimi kasalliklarida hamshiralik ishi;</li> <li>- asab tizimi yuqumli kasalliklarida, bosh va orqa miyada qon aylanishining buzilishida hamshiralik ishi;</li> <li>- markaziy asab tizimining o‘simalari, absessi, parazitar kasalliklari, shikastlarida hamshiralik ishi;</li> <li>- vegetativ asab tizimi kasalliklari, asab tizimining kasbga aloqador kasalliklari va zaharlanish hollarida hamshiralik ishi.</li> </ul>
<b>Ko‘nikma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- asab tizimi kasalliklari bilan og‘igan bemorlarni fizikal tekshirish, holatini baholash;</li> <li>- nevrologik statusni tekshirish va baholash;</li> <li>- pay reflekslarini tekshirish;</li> <li>- asbob-uskunalar yordamida tekshirishlarni o‘tkazishga bemorlarni tayyorlash va tekshirishlarni o‘tkazishda ishtiroy etish;</li> <li>- periferik asab tizimi kasalliklari bilan og‘igan bemorlarni fizikal tekshirish, holatini baholash;</li> <li>- paravertebral blokada qilish uchun bemorni va kerakli jihozlarni</li> </ul>

	tayyorlash, blokadadan keyingi parvarishlash; - fizioterapevtik muolajalarni o‘tkazish; - meningial belgilarni aniqlash; - meningitda shoshilinch yordam ko‘rsatish; - lyumbal punksiya uchun zarur bo‘lgan ashylarni va bemorlarni tayyorlash, lyumbal punksiyadan keyin bemorlarni parvarishlash; - koma holatida ko‘rsatiladigan shoshilinch yordam: og‘iz bo‘shlig‘idan shilimshiqni so‘rib olish; - bemorning to‘shakdagi to‘g‘ri holatini egallashini nazorat qilish; - siyidik qopini katetrlash; - yotoq yaralarni oldini olish; - bemorlarni ovqatlantirish; - gipertonik huqnalar o‘tkazish; - asab kasalliklarii bilan og‘rigan bemorlarga o‘z-o‘zini parvarish qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish; - kontrakturalarni oldini olish uchun mashqlar bajartirish; - xodunok va qo‘ltiq tayoqlardan foydalanishni o‘rgatish; - bemorlarni qo‘srimcha tekshirish usullariga tayyorlash; umurtqa pog‘onasi rentgenografiyasiga; - kalla rentgenografiyasiga; - orqa miya (lyumbal) punksiyasiga bemorni va kerakli jihozlarni tayyorlash, punksiyadan keyingi parvarishlash; - miya o‘smalari bilan og‘rigan bemorlarda surunkali og‘riq sindromida yordam ko‘rsatish; - bemorlarni operatsiyadan keyin parvarish qilish; - vegetativ asab tizimi funksiyalarini aniqlash; - angionevrotik shish (Kvinke shishi)da shoshilinch yordam ko‘rsatish; - anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko‘rsatish; - migren xurujida yordam ko‘rsatish; - shovqin va vibratsiyaning nojo‘ya ta’sirini oldini olish chora-tadbirlarini bajarish; - dori moddalari bilan zaharlanishda shoshilinch yordam ko‘rsatish; - zaharlanishda me’dani yuvish; - zaharlanishda tozalovchi huqna qo‘yish; - is gazidan zaharlanishda shoshilinch yordam ko‘rsatish; - tibbiy hujjatlarni yuritish; - muammoli masala misolida hamshiralik jarayoni yuritish.
<b>O‘quv muvofiq bog‘liq bo‘lgan fan nomi</b>	Anatomiya Fiziologiya Patologiya Lotin tili va tibbiy terminologiya Farmakologiya va retseptura asoslari Hamshiralik ishi Terapiyada hamshiralik ishi
<b>O‘qitishni tashkiliy</b>	N-nazariy ta’lim;

<b>shakli</b>	A-amaliy ta'lim;
<b>Dasturga qo'yilgan talab</b>	Majburiy
<b>O'qitish tili</b>	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
<b>Baholash tartibi</b>	Joriy baholash mezoni, yakuniy baholash tartibiga asoslanib
<b>O'quvchilarning bilim ko'nikmalarini baholash</b> va	Yozma, og'zaki, savol-javob, munozara,test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko'nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

## 2. O'quv dasturi mazmuni

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Mavzuning qiskacha mazmuni</b>	<b>Jami</b>	<b>O'qitishning tashkiliy shakli</b>	<b>Mustakil ta'lim</b>
1	Nevropatolo giyaning rivojlanish tarixi.  Bemorlarni bevosita va asbob-uskunalar yordamida tekshirish usullari	<p>Nevropatologiya fani, asosiy rivojlanish bosqichlari. Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar – Roziy kabi ulug' siymolarning tibbiyotga qo'shgan hissalari. Asab kasalliklarini o'rGANISH, davolash, kasallikning oldini olishda mamlakatimiz va dunyo nevropatolog olimlarining izlanishlari, fan rivojiga qo'shgan hissalari.</p> <p>Asab tizimi to'g'risida qicqacha tanatomofiziologik ma'lumot. Simptomlar va klinik holatlar. Harakat buzilishlari. Sezgi buzilishlari. Bosh miya 12 juft nervlari va ularning zararlanish simptomlari.</p> <p>Vegetativ asab tizimi zararlanishi simptomlari. Markaziy asab tizimi zararlanishi simptomlari. Miya pardalari zararlanishi simptomlari. Nevrologik sindromlar.</p> <p>Nevrologik yordamni tashkil etish jarayonlari. Asab kasalliklari bilan og'rigan bemorlar xususiyatlari. Bemorlarning jismoniy, psixologik va sotsial muammolari. Asab kasalliklarini davolash, kasallikning oldini olish, bemorlarni parvarish qilish, ish qobiliyatini qayta tiklashda amaliyot hamshirasining vazifasi.</p> <p>Nevrologik bemorlarni fizikal tekshirish usullarining mohiyati va o'ziga xosligi. Bemorlarni asbob-uskunalar yordamida tekshirish usullari: exoensefalografiya,</p>	10	2.N	2

		<p>reoensefalografiya, dopplerografiya, elektroensefalografiya, kompyuter tomografiya, MRT, rentgenografiya, elektromiografiyaning mohiyati va zamonaviy tekshirish usullari haqida ma'lumot. Qo'shimcha tekshirish usullari. Lyumbal punksiyani o'tkazishda hamshiraning vazifasi. Asab kasalliklarini medikamentoz, fizioterapevtik va jarrohlik yo'li bilan davolash usullari. Bemorlarni parvarish qilish tamoyillari.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- nevrologik bemorlarda fizikal tekshirish usullarini o'tkazish;</li> <li>- nevrologik statusni tekshirish va baholash;</li> <li>- pay reflekslarini tekshirish;</li> <li>- bemorlarni asbob-uskunalar yordamida tekshirish usullari (exoensefalografiya, reoensefalografiya, dopplerografiya, elektroensefalografiya, kompyuter tomografiya, MRT, rentgenografiya, elektromiografiya)ni o'tkazishga tayyorlash va tekshirishlarni o'tkazishda ishtirok etish.</li> </ul> <p>Nevrologiya bo'limi bilan tanishish. Nevrologik bemorlarni qabul qilish qoidalari bilan tanishish. Nevrologik bemorlarni fizikal tekshirish usullari. Nevrologik statusni tekshirish.</p> <p>Bemorlarning es-hushi, kalla suyagi va umurtka pog'onasining holati, meningeal belgilarning bor yo'qligi. Bosh miya nervlari funksiyalarini tekshirish. Harakatni tekshirish. Sezuvchanlik. Reflekslar. Vegetativ nerv faoliyatini aniqlash. Oliy nerv faoliyati: es-hushi, nutq, kayfiyat.</p> <p>Medikamentoz fizioterapevtik va jarrohlik yo'li bilan davolash usullari bilan tanishish. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishish. Bemorlarni parvarish qilish. Nevrologik bemorlarni parvarish qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'rikdan o'tkazilgan bemorning statusidagi o'zgarishlarni kundalikka yozib borish. Tibbiy hujjatlar bilan tanishish va ularni rasmiylashtirish</p>	4.A	2	
2	Periferik asab tizimi kasalliklarida	Nevritlar. Nevralgiyalar. Polinevritlar, Radikulitlar. Etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davolash, parvarishlash, profilaktikasi.	10	2.N	2

	hamshiralik ishi.	<p>Pereferik asab tizimi kasalliklarini zamonaviy davolash usullari.</p> <p>Umurtqa pog'onasi kasalliklari. Osteoxondroz, sabablari, kasallik belgilari, tekshirish usullari, davolash va parvarish qilish.</p> <p>Periferik asab tizimi kasalliklari bilan og'igan bemorlarni dispanser nazoratiga olish, o'tkir va surunkali davrida davolash, parvarish qilish, kasalliklarni oldini olishda patronaj hamshirasining vazifasi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- periferik asab tizimi kasalliklari bilan og'igan bemorlarni fizikal tekshirish, holatini baholash;</li> <li>- paravertebral blokada qilish uchun bemorni va kerakli jihozlarni tayyorlash, blokadadan keyingi parvarishlash;</li> <li>- fizioterapeutik muolajalarni o'tkazish;</li> <li>- nevritlarda hamshiralik jarayonini yuritish.</li> </ul> <p>Mavzuga oid bemorlarni namoyish etish. Bemorlarni fizikal tekshirish, holatini baholash va statusdagi o'zgarishlarni tahlil etishni o'rghanish. Bemorlarni parvarish qilish, turli tekshiruvlarga tayyorlash qoidalari bilan tanishish. Novokainli blokadaga kerakli jihozlarni va bemorlarni tayyorlashda hamshiralik ishi. Novokainli blokadadan keyingi hamshiralik ishi.</p> <p>Fizioterapeutik muolajalarni o'tkazishda hamshiralik ishi. Bemorlar sog'lig'ini qayta tiklashda patronaj hamshirasining ishtiroki. Muammoli masala misolida hamshiralik jarayonini yuritish (ob'ekt: Nevrit kasalligi bilan og'igan bemor).</p>		4.A	2
3	Asab tizimi yuqumli kasalliklarida hamshiralik ishi	<p>Meningitlar. Birlamchi va ikkilamchi meningitlar. Ensefalitlar. Epidemik ensefalit. Poliomielit. Etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik belgilari, kechishi, asab tizimi yuqumli kasalliklarini aniqlashda lyumbal punksiya, virusologik, bakteriologik va serologik usulda tekshiruvning ahamiyati, bemorlarni davolash va parvarishlash. Kasalliklar profilaktikasi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- asab tizimi yuqumli kasalliklari bilan og'igan bemorlarni fizikal tekshirish, bemor holatini baholash;</li> <li>- meningial belgilarni aniqlash;</li> <li>- meningitda shoshilinch yordam ko'rsatish;</li> <li>- lyumbal punksiya uchun zarur bo'lgan</li> </ul>	10	2 N 4 A	2 2

		<p>ashyolarni va bemorlarni tayyorlash, lyumbal punksiyadan keyin bemorlarni parvarishlash;</p> <p>Asab tizimi yuqumli kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni fizikal tekshirish. Bemorlar holatini baholash. Meningial belgilar: ensa mushaklarining regidligi, Kernig belgisi, yuqori, o‘rta va pastki Brudzinskiy belgilarini aniqlash. Bemorlarni parvarishlash.</p> <p>Lyumbal punksiya uchun zarur bo‘lgan ashylarni va bemorlarni tayyorlashda hamshiralik ishi. Lyumbal punksiyadan keyin bemorlarni parvarishi.</p> <p>Tibbiy hujjatlarni yuritish.</p> <p>Meningit, ensefalit bilan og‘rigan bemorlarda asoratlarni oldini olish va reabilitatsiya qilishda patronaj hamshirasinig roli.</p>		
4.	Bosh va orqa miyada qon aylanishining buzilishida hamshiralik ishi.	<p>Bosh va orqa miyada qon aylanishining buzilishida hamshiralik ishi. Gemorragik va ishemik insultlar. Etiologiyasi, klinikasi, kechishi, davosi, parvarishi, profilaktikasi. Kasalliklarning o‘tkir davrida hamshiralik ishi. Qayta tiklanish davridagi hamshiralik ishi. Orqa miya qon tomirlari zararlanishi sabablari, kechishi, davolash va oldini olish.</p> <p>- insultda bemorlarni fizikal tekshirish. bemorlar holatini baholash: bemorlar shikoyatlarini so‘rab surishtirish, bosh miya nervlarini tekshirish, sezgilarni aniqlash, nutq buzilishini tekshirish, harakat sohasini tekshirish;</p> <p>- koma holatida ko‘rsatiladigan shoshilinch yordam: og‘iz bo‘shlig‘idan shilimshiqni so‘rib olish, bemorning to‘shakdagi to‘g‘ri holati, siyidik qopini katetrlash, yotoq yaralarni oldini olish, bemorlarni ovqatlantirish;</p> <p>- gipertonik huqnalar o‘tkazish;</p> <p>- insult kasalligi bilan og‘rigan bemorlarga o‘zo‘zini parvarish qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish;</p> <p>- kontrakturalarni oldini olish uchun mashqlar bajarish;</p> <p>- xodunok va qo‘ltiqtayoqlardan foydalanishni o‘rgatish;</p> <p>- tibbiy hujjatlarni yuritish</p> <p>Reanimatsiya bo‘limi bilan tanishish. Mavzuga oid bemorlarni namoyish etish. Kasalliklarni o‘tkir davrida shoshilinch yordam</p>	14 8 A	2 N 2

		<p>ko'rsatish va parvarishlash. Hayotiy muhim ko'rsatkichlarni kuzatib borish. Koma holatida shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Insultlarni farqli davolash, gigienik va davolash muolajalari. Gipostatik pnevmoniya va yotoq yaralarning oldini olish, yutish buzilganda bemorlarni ovqatlantirish, gipertonik huqnalar. Bemorlarni qo'shimcha tekshirish usullariga tayyorlash. Kontrakturalarning oldini olish.</p> <p>Insult kasalligi bilan og'igan bemorlarga o'z-o'zini parvarish qilish, o'z-o'zini boshqarishiga o'rgatish. Bemorlar sog'lig'ini qayta tiklashda patronaj hamshirasining ishtiroki.</p>			
5	Markaziy asab tizimining o'smalari, absessi, parazitar kasalliklarida hamshiralik ishi. Markaziy asab tizimi shikastlarida hamshiralik ishi.	<p>Bosh miya o'smalari, bosh miya absessi, miyaning parazitar kasalliklari. Kasalliklarning etiologiyasi, simptomlari, klinikasi, kechishi, davolash usullari va parvarishi. Hamshiralik deontologiyasi. Kasalliklar profilaktikasida amaliyot hamshirasining vazifasi. Qo'shimcha tekshirish usullari (umurtqa pog'onasi rentgenografiyasiga, kalla suyagi rentgenografiyasiga, pnevmoensefalografiya, exoensefalografiya, kompyuter tomografiyasiga) ni tashxis qo'yishdagi ahamiyati.</p> <p>Bemorlarni operatsiyaga tayyorlashda hamshiralik parvarishi. Bemorlarni operatsiyadan keyin parvarish qilish xususiyatlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bemorlarni qo'shimcha tekshirish usullariga tayyorlash: umurtqa pog'onasi rentgenografiyasiga;</li> <li>- kalla rentgenografiyasiga;</li> <li>- orqa miya (lyumbal) punksiyasiga bemorni va kerakli jihozzlarni tayyorlash, punksiyadan keyingi parvarishlash;</li> <li>- miya o'smalari bilan og'igan bemorlarda surunkali og'riq sindromida yordam ko'rsatish;</li> <li>- bemorlarni operatsiyadan keyin parvarish qilish.</li> </ul> <p>Mavzuga oid bemorlarni namoyish etish. Asab tizimining o'sma kasalliklari bilan og'igan bemorlarni fizikal tekshirish. Bemorlar holatini baholash. Bemorlarni davolash va parvarish qilish. Reanimatsiya bo'limida ishlash. Bemorlarni qo'shimcha tekshirish usullariga tayyorlash, o'tkazishda hamshiralik</p>	15	2 N	2

		<p>parvarishi. Tekshirishdan keyingi parvarish. Degidratatsion davo o'tkazish sxemasi.</p> <p>Asab tizimining o'sma kasalliklari bilan og'igan bemorlarda surunkali og'riq sindromida yordam ko'rsatish. Bemorlarni operatsiyaga tayyorlashda parvarishni amalga oshirish. Bemorlarni operatsiyadan keyin parvarish qilish: ovqatlantirish, gigienik muolajalarni bajarish, yotoq yaralarni oldini olish, kontrakturani oldini olish, siydk qopini kateterizatsiya qilish.</p> <p>Markaziy asab tizimi shikastlarining tasnifi. Bosh miya yopik shikastlari: bosh miyaning chayqalishi, lat yeishi, ezilishi klinikasi, davosi va parvarish qilish xususiyatlari.</p> <p>Orqa miya shikastlari, orqa miyaning umurtqa suyagi sinishida zararlanish simptomlari, birinchi yordam ko'rsatish.</p> <p>Kasalliklar asorati, bemorlarning ish qobiliyatini tiklashda amaliyot hamshirasining o'mi.</p>		
6	Vegetativ asab tizimi kasalliklari, asab tizimining kasbga aloqador kasalliklari va zaharlanish hollarida hamshiralik ishi.	<p>Vegetativ asab tizimi kasalliklari – migren, vegetativ qon tomirlar distoniysi haqida tushuncha. Kvinke shishi, anafilaktik shok haqida tushuncha. Kasalliklar sababi, kechishi, belgilari, davolash, parvarishlash, oldini olishda hamshiralik ishi. Asab tizimining kasbga aloqador kasalliklari - tebranish kasalligi, is gazidan zaharlanish. Asab tizimining zaharli ximikatlar va ayrim dori moddalari bilan zaharlanishida uchraydigan simptomlar, shoshilinch yordam ko'rsatishda amaliyot hamshirasining roli.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- vegetativ asab tizimi funksiyalarini aniqlash;</li> <li>- angionevrotik shish (Kvinke shishi)da shoshilinch yordam ko'rsatish;</li> <li>- anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko'rsatish;</li> <li>- migren xurujida yordam ko'rsatish;</li> <li>- shovqin va vibratsiyaning nojo'ya ta'sirini oldini olish chora-tadbirlari;</li> <li>- dori moddalari bilan zaharlanishda shoshilinch yordam ko'rsatish;</li> <li>- zaharlanishda me'dani yuvish;</li> <li>- zaharlanishda tozalovchi huqna qo'yish;</li> <li>- is gazidan zaharlanishda shoshilinch</li> </ul>	13 8 A	2 N 2

		yordam ko'rsatish. Kvinke shishi, anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko'rsatish, shokka dori vositalar jamlanmasi bilan tanishish. Asab tizimining kasbga aloqador kasalliklari , zaharli ximikatlar va ayrim dori moddalari bilan zaharlanishida shoshilinch yordam ko'rsatish.		
		<b>Jami:</b>	<b>72</b>	<b>12 N 36A</b>

#### **4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

##### **Prezident asarlari:**

1. Shavkat Mirziyoev «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz” Toshkent – “O'zbekiston” 2018.
2. Shavkat Mirziyoev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir” Toshkent – “O'zbekiston” 2018.
3. Shavkat Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz” Toshkent – “O'zbekiston” 2016.
4. Shavkat Mirziyoev «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” Toshkent – “O'zbekiston” 2017.

##### **Asosiy adabiyotlar**

1. Shodmonov X.Q., Eshmuradova X.Sh., Tursunov O.T. “Asab va ruhiy kasalliklar”. Toshkent, “O'qituvchi” nashriyoti, 2009 yil.
2. Po'latova Sh.A., SaidovaX.X. “Kattalarda hamshiralik parvarishi” II qism, Toshkent “Cho'lpon” nashriyoti, 2014 yil.

##### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Raximberdieva G. “Asab kasalliklarida hamshiralik ishi”. Toshkent, “Voris-nashriyot”, 2014 yil.
2. Spravochnik Vidal. Moskva, “Astrofarmservis”, 2008 yil.
3. Verner D. “Hammabop tibbiyot qo'llanmasi” Toshkent, “G'afur G'ulom” nashriyoti, 2006 yil.

##### **Internet saytlari:**

- [www.med.uz](http://www.med.uz).  
[www.medical.ru](http://www.medical.ru).  
[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz).  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz).  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).  
[www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz).

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING  
5.71.03.01-“Hamshiralik ishi” mutaxassisligining**

Psixiatriva va narkologiyada hamshiralik ishi

**NAMUNAVIY O`QUV DASTURI**

**Kvalifikatsiya raqami va nomi:** **5.71.03.01-“Hamshiralik ishi”  
mutaxassisligining**

**O`quv rejadagi tartib raqami:** 3.10  
**Ajratilgan auditoriya soat:** 72

**Toshkent 2021 yil**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



**Tuzuvchilar:**

**G. Sattieva**

Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi etakchi  
o`qituvchisi

**Taqrizchi:**

**M. M. Buvabekov**

Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi direktori

## 1. O'quv dasturiga qo`yiladigan talablar

<b>Ajratilgan soat</b>	Psixiatriva va narkologiyada hamshiralik ishi 72
<b>Mavzular soni</b>	6
		bachadon bo`ynini qin ko`zgulari yordamida ko`rish uchun jixozlar tayyorlashni; qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni; patronaj ishlarini o`tkazishni; Ayollarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishda qatnashish; Tug`uvchi ayolni qabul qilish va qabul daftariga qayd qilishni, tug`uvchi ayoldan anamnez yig`ishni. Tug`ruq varaqasining pasport qismini to`ldirishni, chanoqni tashqi o`lchamlarini o`lchashni, bachadon tubi balandligini o`lchashni homilaning tahminiy vazini aniqlashni;			
3.	Ginekologik bemorlarni tekshirish usullarida feldsherning vazifasi	O`quvchilar homilador ayollarni tekshirish jarayonida ishtirot etish yoki etakchi akusher raxbarligida tekshiruvni mustaqil bajarish Akusher-ginekolog qabulida ishtirot etish. Ko`zgular yordamida qinni tekshirish va surtma olish. CHanoq o`lchamlarini o`lchash. Homiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patronaj ishlarini o`tkazish. Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. Qin vannasini o`tkazish, tapmon qo`yish. Homiladorlik varaqasini to`ldirishni; in va bachadon bo`ynini qin ko`zgulari yordamida ko`rish uchun jixozlar tayyorlashni; Qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni; Almashinuv kartasini to`ldirishni; Patronaj ishlarini o`tkazishni; Ayollarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishda qatnashish; Tug`uvchi ayolni qabul qilish va qabul daftariga qayd qilishni; Tug`uvchi ayoldan anamnez yig`ishni; Tug`ruq varaqasining pasport qismini to`ldirishni; CHanoqni tashqi o`lchamlarini o`lchashni; Bachadon tubi balandligini o`lchashni; Tug`uvchi ayolni parvarish qilish. Dard kuchini, ular orasidagi pauzani, maromini aniqlash. Homilaning yurak urishini sanash. SHifokor buyurgan muolajalarini o`z vaqtida bajarish. Infuzion sistemani tayyorlash. Mushak orasi va vena ichiga in'ektsiya qilish. Tug`uvchi ayolni tug`ruq xonasiga o`tkazish. CHaqaloqni emizishga tayyorlash. CHaqaloqlarni cho`miltirish.	36	36	18

		CHAqaloqlarga birlamchi va ikkilamchi ishlovlarini berish. Kasal chaqaloqni sog`lom chaqaloqlardan izolyatsiyalash. Ayollarni ginekologik tekshiruvlarga tayyorlash. Tekshiruvlar uchun asbob-uskunalarni tayyorlash. Ginekologik kasalliklarda shoshilinch yordam ko`rsatish. Gistologik tekshirishlarga olingan materiallarni saqlash va laboratoriyaga jo`natish.		
		Jami	108	108

**IV semestr. OSH, QOP ambulatoriya poliklinika bo`g`in, tez yordam hamshirasi  
yordamchisi**

1.	Ayollar jinsiy a'zolarining yallig`lanish kasalliklarida feldsher akusherning vazifalari	Amaliy mashg`ulot OSHda va ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`qituvchi o`quvchilarga septik yallig`lanish kasalliklariga chalingan bemorlarni parvarishlash qilishda feldsherning vazifalari bilan tanishtiradi. O`quvchilar ginekologiya bo`limida navbatchi hamshiralarga bemorlarni parvarish qilishda, surtma olish, qin muolajalarini o`tkazishda ko`maklashadilar.	43	43	22
2.	Ayollar jinsiy a'zolari o`sma kasalliklarida feldsher akusherning vazifalari, onkologiya bo`limidagi ish	Amaliy mashg`ulot OPning mahalla akusher-ginekolog xonasida va akusherlik majmularining ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`quvchilar xavfsiz va xavfli o`sma larda chalingan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qilishadi. Bemorlarni parvarishlashda navbatchi hamshiralarga ko`maklashadilar.	43	43	22
3	Kontratseptsiya ning zamonaviy usullarini qo`llash	O`qituvchi o`quvchilarga kontratseptiv usullarni turlarini va ularni to`g`ri tanlashda ayollarga maslahatlar berishni o`rgatadi. O`qituvchi nazorati ostida o`quvchilar bemorlardan surtma oladilar, laboratoriyaga tekshirish uchun yo`llanma to`ldiradilar. Bo`yida bo`lishdan saqlovchi vositalarni ayolga qo`llanilganda vrachga assistentlik qiladilar, zarur asbob-anjomlarni tayyorlaydilar, kerakli tibbiy hujjatlarning tegishli qismini to`ldiradilar. Tug`ish yoshidagi ayollarni sog`lomlashtirish tadbirlarida faol katnashadilar: abortning zararli oqibatlari va bo`yida bo`lishning zamonaviy usullari haqida suhbatlar uyuştiradilar.	43	43	22

4	Tez tibbiy yordam dispecheri yordamchisi	<p>Tez tibbiy yordam bo`limlarida dispecheri yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi.</p> <p>Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi..</p>	43	43	22
5	Tez tibbiy yordam feldsheri yordamchisi	<p>Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi.</p> <p>Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari).</p> <p>Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish.</p> <p>Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.</p>	44	44	20
<b>Jami</b>			<b>216</b>	<b>216</b>	<b>108</b>

#### **V semestr. OSHP, KOP ambulatoriya poliklinika bo`g`inda feldsher- akusher va tez yordam hamshirasi yordamchisi**

1	Hayz faoliyatining buzilishida feldsher akusherning vazifalari	Amaliy mashg`ulot oilaviy poliklinikaning mahalla akusher-ginekologik xonasida va akusherlik majmularining ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`quvchilar vrach qabuliga kelgan ayollarni va ginekologiya bo`limida hayz ko`rish faoliyatining buzilishi tufayli davolanayotgan ayollarning kasallik	42	42	21
---	--	---	----	----	----

		<p>tarixini klinik tahlil qiladilar, jumboqli masalalar echadilar. O`qituvchi o`quvchilarga hayz ko`rish faoliyatining buzilishi, ularning ko`rinishlari, aniqlash va diagnostikasi uchun ko`llaniladigan usullar bilan tanishtiradi.</p> <p>Bo`limlarda hamshiralarga bemorlarda funktional-diagnostik testlarni o`tkazishga va davolashga yordam beradilar. Xotin-qizlar maslahatxonalar va tug`ruq majmuasi ginekologiya bo`limlarda shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganadi.</p>			
2	Homiladorlik ning birinchi va ikkinchi yarmida parvarish qilish, qon ketishida feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami.	<p>Amaliy mashg`ulot akusherlik majmularining tug`ruq bo`limlarida, ginekologiya bo`limlarida o`tkaziladi</p> <p>O`quvchilar homiladorlik patologiyasi bo`limida homila tushish xavfi bo`lgan ayollarni kuzatishadi va uni saqlash rejasи bilan tanishadilar. CHala tug`ilgan bolalarni kyuvezda parvarish qilish qoidalari bilan tanishadilar va parvarish qilishda hamshiralarga yordam beradilar. Akusherlik postida ishlaydi, «Abortning zarari», «Alkogol, tamaki va dori-darmonlarning homiladorlikka ta'siri» mavzularida suhbatlar o`tkazadi. Homilador ayolni ko`rikdan o`tkazadi, homiladorlik muddatini aniqlaydi, muddatidan o`tgan homiladorlik belgilarini aniqlaydi</p> <p>O`qituvchi bola tashlashda ayolga shoshilinch yordam berishda, abortga qarshi choratadbirlar o`tkazish ishlarida feldsherning vazifalari bilan o`quvchilarni tanishtiradi. Xotin-qizlar maslahatxonalarini, tug`ruq majmularining homiladorlik patologiyasi bo`limlarida mustaqil ishslash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish, shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganadi Amaliy mashg`ulot tug`ruq bo`limlarida o`tkaziladi. O`quvchilar tug`ruq yo`llarining turli xil shikastlanishlariga sabab bo`lgan tug`ruq tarixi bilan tanishadilar va muammoli vaziyatdan masalalarni echadilar. Yo`ldoshning oldinda joylashganligini va barvaqt ko`chishi asorati bilan kechgan tug`ruq tarixlarini klinik taxlil qiladilar. Homilador ayollardan qon ketganda</p>	42	42	21

		shoshilinch yordam berishda va ularni parvarishlashda ishtirok etadilar. Oilaviy poliklinikalarida qon ketishga xavfi yuqori bo`lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug`ullanishadi.			
3.	Neonatal intensiv terapiya bo`limidachaqaloqlarning parvarishi	<p>Neonatal intensiv terapiya bo`limiga gospitalizatsiya qilingan bolalar xususiyatlarini tushunish. Bola va uning oilasiga ko`rsatiladigan hamshiralik parvarishini tushunish. Betob chaqaloqni qabul qilish. CHaqaloq onasidan anamnez yig`ish. Hamshira tashxisini qo`yish. Betob chaqaloqqa tibbiy yordam ko`rsatish va parvarish qilish.</p> <p>Oksigenoterapiya (tanishish);            Elektroootsosni ishga tayyorlashni;            Endotraxeal intubatsiya uchun jihoz yig`ishni;            Muzli xaltani qo`llashini;            Kon quyishni o`tkazishda qatnashish;            Kindik yarasi va terini parvarishi qilishni;            CHaqaloqlarni tana haroratini o`lchash va qayd qilishni;            CHaqaloq va chala tug`ilgan chaqaloqlarda antropometriya o`lchovlarini o`tkazishni;            CHaqaloq va chala tug`ilgan bolalarda nazoratli emizishni nazorat qilishni;            Klinik tekshiruvlarga analiz yig`ishni;            CHaqaloq va chala tug`ilgan bola terisiga va kindik qoldig`iga ishlov berishni.</p>	42	42	21
4	Tug`ruq kompleksidagi ishlari	O`quvchilar bo`limning katta hamshirasi rahbarligida ishlaydilar. Bo`limning tartibi, ishlash va san-epid tartibi bilan tanishadilar. SHu bo`limga taaluqli bo`lgan ko`rsatmalar va buyruqlarga amal qiladilar. “Tez yordam” markazining akusherlik-ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarini mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish	42	42	21
5	Ginekologiyada o`tkir qorin sindromida shifokorgacha bo`lgan tez tibbiy	Amaliy mashg`ulot ginekologiya bo`limi va klinika oldi amaliyot xonasida o`tiladi. O`qituvchi orqa gumbaz punktsiyasiga ko`rsatmalar va bajarish texnikasini o`quvchilarga o`rgatadi. Bo`limlarda	42	42	21

	yordam ko`rsatish	o`quvchilar bemor ko`rigida, orqa gumbaz punktsiya qilish uchun ishlataladigan asboblarni tayyorlashda ishtirok etishadi. Bo`limlarda o`quvchilar vrach ko`rsatmalarini bajarishda hamshiraga ko`maklashadilar, bemorlarni davolashda va operatsiyaga tayyorlashda ishtirok etadilar. Operatsiyadan keyin bemorlarni parvarish qilishda qatnashadilar. “Tez yordam” markazining ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishslash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish.			
6	Tez yordam feldsheri yordamchisi	<p>Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bulimida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi.</p> <p>Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari).</p> <p>“Tez yordam” markazining akusherlik-ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishslash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish</p> <p>Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish.</p> <p>Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.</p>	<b>42</b>	<b>42</b>	<b>21</b>
	<b>Jami</b>		<b>252</b>	<b>252</b>	<b>126</b>
	<b>HAMMASI</b>				

### **3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash**

O`kuvchilarni uslubiy raxbar tomondan amaliy kundalik daftarlari nazarot kilib boriladi

O`kuvchilarni bo`limda bemorlarni parvarish kilish bo`yicha ko`nikmalarni uslubiy va bevosita uslubiy raxbar tomonidan nazorat kilib boriladi.

Kundaliklar vaktida tekshirilib baholab boriladi.

### **4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlar:**

#### **Prezident asarlari**

1. SHavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

2. SHavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv baxodir” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

3. SHavkat Mirziyoev “[Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz](#)”Toshkent – “O`zbekiston”-2016.

4. SHavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”Toshkent – “O`zbekiston

#### **Asosiy adabiyotlar**

1.K.S.Inomov. «Hamshiralik ishi». Toshkent, «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2009 y.

2. F.G.Nazirov «Bemorlarni shifoxonada va uyda parvarish qilish » Toshkent 2007.

3.T .YU.Umarova «Hamshiralik ishi» , «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2004 y.

4. A.T.Nikbaev. «Jamiyat sog`lig`ini saqlash va tibbiy statistikasi». Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2005 y.

5. «Hamshira» jurnali

6. «O`zbekiston Sog`liqni Saqlash» haftalik gazetasi

7. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi buyruqlari

8. Yaponianing Hamshiralik ta`limini takomillashtirish “JICA” loyihasi seminari materiallari.

#### **Internet saytlari:**

1. ziyonet.uz,

2.med.uz,

3. minzdrav.uz,

4.tma.uz,

5.tashpmi.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING**

**O'QUV DASTURI**

**5.71.03.01-“Hamshiralik ishi” mutaxassisligining**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT**

Kvalifikatsiyalar nomi: Umumiy amaliyot xamshirasi

O'quv rejadagi tartib raqami elektiv

Ajratilgan soat: 36

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



**Tuzuvchilar:**

Raxmanqulov I.A

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi.

Sulaymanov O.A

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri.

Avlokulov Sh.N.

1-Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

**Taqrizchi:**

Qipchoqov B

SamDU Jismoniy- tarbiya va madaniyat fakulteti dekani

## 1. O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Jismoniy tarbiya
Ajratilgan soat	36
Mavzular soni	18
Dasturning maqsadi	<p>-Talabalarni jismonan baquvvat, epchil, sog‘lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to‘g‘risidagi bilimlarni rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallangan bilimlarni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish orqali jismoniy madaniyat va sport sohasidagi asosiy tushunchalar, maxsus nazariy bilimlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlikni o‘stirishga oid bilim ko‘nikma va malakalarni oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni, o‘z-o‘zini jismoniy mukammallashtirish, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va ulardan mustaqil foydalanishga o‘rgatish.</p>
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	<p>-talabalar sog‘lomlashtirish mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olishni o‘rganadilar;</p> <p>-jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarini rivojlantiradilar;</p> <p>-jismoniy mashqlarni bajarishda o‘quv mashq‘uloti uchun qulay sharoitlarni yarata oladilar;</p> <p>-jismoniy mashqlar yordamida organizmning barcha guruhlarining funksiya tizimlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlantira oladilar;</p> <p>-jismoniy mashqlar yordamida asab tizimini mustahkamlaydi, modda almashuv jarayonini faollashtira oladilar;</p> <p>-gimnastika anjomlaridan to‘g‘ri va xavfsiz foydalana oladilar; yengil atletikaning inson salomatligida tutgan o‘rni va ta’sirini biladi; shaxmat, shashka, basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi, futbol, suzish, badminton, stol tennisi va boshqa sport o‘yinlarining himoya va hujum usullarini biladi;</p> <p>kurashturlari, elementlari hamda usullarini bajara oladilar;</p> <p>-Buyum va buyumsiz bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlarning bo‘g‘inlar va mushak guruhlariga ijobiy ta’siri va uni ketma-ketligi, osilish, tirmashish, muvozanat saqlash, tayanib va tayanmay sakrash, tortilish, akrobatika yelementlari va ritmik gimnastika qoidalariga rioya qiladi;</p> <p>-fazoviy harakatlar va uning bajarilish ketma-ketligiga amal qiladi;</p> <p>-sport turlarining kelib chiqishi va uning rivojlanish tarixini biladi;</p> <p>-sog‘lom turmush tarzini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib yetishda tayanch va jismoniy tarbiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.</p>
Bilimlar	<p>-talabalarda shaxsini har tomonlama rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning roli haqida zamonaviy qarashlar va ishonch shakllantirish;</p> <p>-o‘zini jismoniy takomillashtirishga ehtiyojni tarbiyalash va sog‘lom turmush tarzi motivasiyalarini rivojlantirish;</p> <p>-asosiy jismoniy sifatlarini va psixomotor qobiliyatlarini</p>

	<p>rivojlantirish;</p> <p>-kasbiy (professional) kasalliklarning oldini olish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishga o‘rgatish;</p> <p>-inson shaxsining har tomonlama rivojlantirish uchun talabalarini jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga jalb yetish;</p> <p>-talabalarning bilimlari, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar:</p> <p>-qo‘yish jadvalida ko‘rsatilgan kunlar va soatlarda muntazam ravishda jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlarda qatnashish;</p> <p>-o‘zining jismoniy tayyorgarligini oshirib borish;</p> <p>-nazorat mashqlari va normativlarini bajarish, ko‘rsatilgan muddatlarda jismoniy tarbiya bo‘yicha reyting-nazoratini topshirish;</p> <p>-o‘qish, dam olish va ovqatlanish ratsional rejimiga amal qilish;</p> <p>-doimiy ravishda gigienik va ishlab chiqarish gimnastikasi bilan shug‘ullanish, o‘qituvchilarining muhim maslahatlaridan foydalanib, mustaqil ravishda jismoniy mashqlar va sport bilan shug‘ullanish;</p> <p>-o‘quv guruhlarida, kursda, fakultetda, oliy ta’lim muassasalarida va boshqa ommaviy sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida faol ishtirot yetish;</p> <p>-belgilangan muddatlarda tibbiy ko‘rikdan o‘tish, sog‘ligi va jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarligi holatini o‘zi nazorat qilib borish;</p> <p>-o‘qish jadvalida kiritilgan jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘quv vazifalari sifatida yemas, balki faol dam olish va boshqa fanlar bo‘yicha og‘ir aqliy ishlardan so‘ng kuchlarini tiklash va bolajak mashg‘ulotlariga tayyorgarlik vositasi sifati qabul qilish (tushunish) xususiyatlariga ega bo‘ladilar.</p>
Ko‘nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda odamning jismoniy kamoloti, bunga muayyan iqlim va boshqa sharoitlarda yerishish haqidagi maxsus bilimlar tizimini hosil qilish, talabalarda gigiyenik malakalarini shakllantirish, ularni gavdani to‘g‘ri tutishga, jismoniy madaniyat va sport bilan muntazam shug‘ullanishga odatlantirish;</li> <li>- harakatning asosiy jismoniy sifatlari (tezkorlik, kuch-quvvat, chidamlilik, chaqqonlik, epchillik) ni har tomonlama rivojlantirish;</li> <li>- maqsadga intilish, mustaqillik va ijodiy qobiliyat, mardlik, sabot va intizom, mas’uliyat, vatanparvarlik, jamoaviylik, do‘stlik hamda o‘rtoqlikni chuqur his yeta bilish; mehnatga va jamiyat mulkiga ongli munosabatda bo‘lish, madaniy xulq-atvor malakalarini tarbiyalash;</li> <li>-talabalarning “Alpomish” va “Barchinoy” test talabalarini bajarish uchun jismoniy tayyorgarligini oshirish;</li> <li>-talabalarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bilan muntazam shug‘ullanish yehtiyojini shakllantirish.</li> <li>- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;</li> <li>- milliy o‘yinlar, sport musobaqlari va ularning turlarini talabalarning jismoniy tarbiya tizimiga joriy yetishda</li> </ul>

	<p>muvofiglashtirilgan jismoniy tarbiyani rivojlantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quv-mashg'ulot jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya va uslublarni joriy yetish;</li> <li>- sport zahiralarini tayyorlash shahobchalarini kengaytirish;</li> <li>- talabalarning O'zbekiston Davlat Sport qo'mitasiga qarashli Olimpiya Shon-shuhrati muzeyi to'g'risidagi nazariy bilimlarini takomillashtirish, jismoniy mukammallikka bo'lgan ongli yehtiyojini shakllantirish;</li> <li>- jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali kasallikning oldini olish, sog'lig'ni mustahkamlash, mashqlar bajarganda o'z-o'zini nazoratga o'rgatish;</li> <li>- talabalarni sport turlari bilan faol shug'ullanishga jalg qilish, jismoniy tarbiyaning mohiyatini va talabaning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib etishiga ko'maklashish, qo'lga kiritilgan yutuqlarni targ'ib qilish.</li> </ul> <p>-Sport o'yinlari, jihoz va anjomlarning nomlari, tuzilishi va o'lchamlari haqida ma'lumotlarni biladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-sport o'yinlariga oid jihoz va anjomlar, basketbol shchiti, halqa, to'p, futbol darvozasi, to'r, to'p, bayroqlar, voleybol ustuni, hakamlar o'tirish uchun maxsus joy, to'ldirma to'p, turli to'siqlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qila oladi;</li> <li>-kurashda xavfsizlik texnikasiga rioya qila oladi;</li> <li>-mashg'ulotlar vaqtida shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'nikmalarini egallaydilar.</li> </ul>
O'quv rejasnga muvofik o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi	Anatomiya Fiziologiya Patalogiya Tibbiy biologiya . Umumiyl genetika
O'qitishning tashkiliy shakli	N -nazariy ta'lim; A -amaliy ta'lim; NA -birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar; MX -maxsus xonalarda mashg'ulot.
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruxga tayinlangan dars tili asosida
Baxolash tartibi	Joriy baxolashtartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob, munozara, test, amaliytopshiriq

## 2. O‘quv dasturi mazmuni

<b>№</b>	<b>Mavzuning nomi</b>	<b>Mavzuning qisqacha mazmuni</b>	<b>Jami</b>	<b>O‘qitishni tashkiliy shakli</b>	<b>Mustakil ta’lim</b>
1	Gimnastika	<p>O‘zbekistonda gimnastikaning rivojlanish tarixi. Gimnastika mashqlarini tana rivojlanishdagi o‘rni. Gimnastik mashqlarni amalga oshirishda jarohatlanish va jarohatlanishning oldini olish chora tadbirlari. Saflanish va qayta saflanish mashqlari. Bir, ikki, uch, to‘rt qatorga saflanishni takrorlash. Safda va alohida-alohida yurish jarayonida “Chap-Ga”, “O‘ng- Ga”, Orqa- Ga” buyruqlarga binoan burilish harbiy xizmat Nizomida qo‘llaniladigan mashqlarini bajarishni takomillashtirish. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar. Gantellar, to‘ldirmato‘p, gimnastik tayoqchalar juft- juft bo‘lib mashq bajarish; bir-biriga qarama-qarshi turib, bir-biriga orqa turib har xil harakat mashqlarini bajarish, juft holda har tomoniga yurish va yugurish, biroyoqda “ to‘pponcha” usulida o‘tirib turish. Osilish va tayanishlar. Yigitlar: baland turnikda qo‘llarga osilib oldingga va orqasiga sultanishlar, kuch bilan tortilib, to‘ntarilib qo‘llarga tayanib turish. Oldinga sultanib chiqib o‘ng (chap) oyoqni oldinga o‘tkazish. Orqaga to‘ntarilib sultanishlar bilan orqaga tushish. Qizlar: baland-past bruslarda qo‘llar bilan xodada osilgan holatda sultanish, osilibotirish, ko‘tarilib baland xodada tik osilish, qo‘l ustidan oshirib chalkashtirib ushlab, chap tomoniga 90 gradus burilish va chap oyoq sonigao‘tirish, o‘ng qo‘l yonida chap qo‘l bilan orqadan (xodani) past tomonidan ushlab o‘ngga burilib orqada aylanib sakrab tushish. Tirmashib chiqish: Yigitlarikki, qizlar uchurinishda arqonga tirmashib chiqish. Akrobatika: Yigitlar chalqanchayotgan holatda g‘ujanak bo‘lib o‘tirishga o‘tish. Oldinga va orqaga g‘ujanak bo‘lib umboloq oshish. Sherigi yordamida qo‘lda tik turib va shu holatda sherigi yordamida oldinga umboloq osishni takrorlash, boshda va qo‘llarda uchburchak hosil qilib tik turish. Oldinga va orqaga umboloq osishlarni murakkablashtirilgan usullarda bajarish. Qizlar: “Ko‘prik” hosil qilish, ko‘prik holatida burilib bir tizzaga tayanib turib qolish, oldinga va orqaga umbol</p>	4	4 A	2

		<p>oqoshish. Orqaga umboloq oshib oyoqlarni yarim holatidan turish. Tayanib sakrash. Yigitlar balanddan 115 sm bo‘lgan yeni bilan qo‘yilgan “Yeshak” va balandligi 115 sm uzunasiga qo‘yilgan “Ot” ustida noyoqlarni kerib sakrab o‘tish. Qizlar: balandligi 110 sm bo‘lganeni bilan qo‘yilgan “Ot” ustidan yuguribkelib, tayanib yon tomon bilan sakrash. O‘zlashtirish mezonlari. Osilishvatayanish: Yigitlar: baland turnikda kuch bilan tortilib, to‘ntarilib qo‘llarga tayanishni bilish. Qizlar: Past-baland brusslarda mashqlar majmuasini to‘liq bajara olishga yerishish. Yakka cho‘pustida muvozanat saqlash. Qizlar: Yakka cho‘pustida muvozanat saqlab yurishlar, biroyoqda o‘tirganholda 180 gradus burilishlarni bajarish. Sakrab burilish, o‘trib qo‘llarda tayanib oyoqlarni kerib o‘tirish va tik turish. Qo‘llarda tayani boyoqlarni orqaga siltab sakrab tushish. O‘zlashtirish mezonlari</p> <p>Akrobatika: Yigitlar: Sherigi yordamida qo‘llarda tik turib va shu holatdan sherigi yordamida oldinga umboloq osha bilish. Qizlar: Yotgan holda mustaqil “ko‘prik” yasash. Tayanib sakrash: Yigitlar uzunasiga qo‘yilgan “ot” da, qizlar “yeshak”dan oyoqlarni kerib sakray olish. Tirmashib chiqish: Yigitlarikki, qizlar uchurinishda arqonga tirmashibchiqa olish.</p>		
2	Yengil atletika	<p>O‘zbekiston yengil atletikaning rivojlanish tarixi. Yengil atletikaning o‘quvchilarda harakat sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati to‘g‘risida tushuncha berish. Kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, yegiluvchanlik sifatlarini tarbiyalash. Yurish va yugurishlar. Yugur ish mashqlari. Tizzalarni oldinga baland ko‘tarib, oyoqlarni orqaga siltab, sakrab-sakrab yugurishlar. Past startdan chiqish va start tezligi 2.20 - 2.30 m.ga tezkor yugurishlar. 60 m. yoki 100 m.ga yugurish. Takroriy yugurishlar: 5-6 marta 60-100 m.ga. Tezlikni o‘zgartirib yugurishlar. Baland startdan 3-4 mart 500 va 800 m.ga yugurish. Yestafetali yugurish, 2-3 km.ga kross yugurish. Sakrashlar. Yugurib kelib balandlikka “Qaychisimon” - “Xatlabo‘tish” usulida sakrash. Yugurib kelib uzunlikka “Oyoqlarni bukib” sakrash mahoratini takomillashtirish. Uloqtirish. Yigitlar 700 gr.li, qizlar 500 gr. ligranataniul oqtirish. Yigitlar: 5 kg. liyadroni, qizlar 4 kg. Liyadroniul oqtirish. Yugurish startida turishi, startdan chiqishi, tezlanishi va masofa bo‘ylab yugurish qoidalariga rioya qilgan holda mashqni mustaqil bajarishga yerishish.</p>	4	4 A 2

		Granataniuloqtirish, yadroni uloqtirish ko‘nikma malakalarini hosil qildirish.		
3	Sport o‘yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo‘l to‘pi, badminton)	<p>O‘zbekistonda basketbol, voleybol, futbol, qo‘l to‘pi, badmintonning rivojlanish tarixi.</p> <p><b>Basketbol:</b> Basketbolchining maydondagi harakatlari: yurish, yugurish, yo‘nalishni o‘zgartirib yurish va yugurish; maydonda joy tanlash, to‘xtashlar va burilishlar, sakrashlar. To‘pni bir yoki ikki qo‘llab ilish. Yuqorilab ketayotgan to‘pni ilish. Pastlab ketayotgan to‘pni ilish, maydondan sapchigan to‘pni ilish. To‘pni ikki qo‘llab ko‘krakdan uzatish yelkadan bir qo‘llab pastdan uzatish usullarini o‘rgatish. To‘pni yerga urib olib yurish. To‘pni bir qo‘l bilan ketma-ket yerga urib olib yurish texnikasini mustahkamlash. To‘pni yo‘nalish balandligini o‘zgartirib yerga urib olib yurishngi o‘rgatish. Joyida turgan holda yelkadan bir qo‘llab to‘pni savatga tashlashni mustahkamlash. Harakat jarayonida to‘pni bir qo‘llab savatga tashlashni o‘rgatish. Jarima to‘plarni tashlash. Zona bo‘ylab turli himoya guruhlarini o‘rgatish. Ikki tomonlama o‘quv o‘yini.</p> <p><b>Voleybol:</b> Voleybol o‘yinining jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishdagi ahamiyati. Voleybol o‘yinining musobaqa qoidalari. Voleybol maydonida o‘yinchilarning harakatlari: oldinga, orqaga uzatish. To‘pni ikki qo‘llab ko‘p marta bosh ustida yuqoriga uzatib o‘ynash. To‘pni pastdan to‘g‘ri o‘yinga kiritish va kiritilgan to‘pni qabul qilib ikkinchi, uchinchi zonaga to‘g‘ri uzatib berish. To‘pni yon tomondan o‘yinga kiritish. To‘pni ikki qo‘llab pastdan qabul qilish. To‘rdan qaytgan to‘pni qabul qilish usulini o‘rgatish. To‘pni pastdan bir va ikki qo‘llab uzatish. Hujum zarbi berish va to‘siq qo‘yish bilan tanishish. Ikki tomonlama o‘quv-mashg‘ulot o‘yini. Taym-brek” usulida hisobni sanashni o‘rgatish.</p> <p><b>Qo‘l to‘pi:</b> Qo‘l to‘pi bilan shug‘ullanuvchilar uchun xavfsizlik qoidalari. Qo‘l to‘pi o‘yinchisining harakatlari: yurish, yo‘nalishni o‘zgartirib yugurish, maydonda joyni tanlash, sakrash. To‘pni ikki qo‘llab ko‘krakda ilish, har xil balandlikda uchib o‘tayotgan to‘plarni ilish. To‘pni yelka balandligida tirsakni bukib uzatish. To‘pni yondan, pastdan uzatish. To‘pni yerga urib olib yurish, just bo‘lib harakat jarayonida to‘pni uzatib olib yurish. To‘pni tayanch holatda</p>	6	6 A 4

		<p>darvozaga tashlashni o‘rgatish. Zona himoyalaridan 6*0,5*1 sistemalarini o‘rgatish. O‘quv mashg‘ulot o‘yini.</p> <p><b>Futbol (minifutbol):</b></p> <p>Musobaqa qoidalari. O‘quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda futbolning ahamiyati.</p> <p>Futbolchining maydon bo‘ylab harakatlari. Yurish yo‘nalishini o‘zgartirib yurish va yugurish, maydonda joyni tanlash. Dumalab kelayotgan va tushib kelayotgan to‘plarni oyoqning panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to‘xtatishni o‘rgatish. To‘pni oyoqni panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan tepib olib yurish. Dumalab kelayotgan to‘pni oyoqning panja qismining ichki, tashqi va yuqori tomonlari bilan tepishini o‘rgatish. Dumalab kelayotgan to‘pni darvozabon tomonidan ilib olish. Har xil balandlikda uchib kelayotgan to‘plarni musht bilan urib yuborish. To‘pni yon tomonidan ikki qo‘llab bosh ustidan o‘yinga kiritish. To‘pni uzatish, chalg‘itish usullarini o‘rgatish. Guruhli taktik o‘yin bilan tanishtirish. O‘quv mashg‘ulot o‘yini.</p> <p><b>Badminton:</b></p> <p>Badminton o‘yinida havfsizlik qoidalari, o‘tkazish joyi va jihozlarga qo‘yilgan gigienik talablar. Badminton o‘yini orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalash. Badminton o‘yini qoidasi va atamalari. Badmintonchining maydondagi turish holati va harakatlari, racketka bilan ishslash va racketka, bilan ishslash usullari. Badminton o‘yinida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, maydonda turish holati, harakatlanish usullari, yurush, yugurish, sakrash, zarba berish. Badmintonchining racketka va volan bilan ishslash usullari. Badminton o‘yinada qo‘llaniladigan atama va tushunchalarni hamda badminton o‘yin qoidasini o‘rganish. Badminton o‘yinida maxsus mashqlarni o‘rgatish. Yakka va juftlik o‘yinlarida volanni o‘yinga kiritish va uzatish usullari.</p>		
4	O‘zbek kurashi (o‘smirlar uchun) Raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	<p><b>O‘zbek kurashi (belbog‘li va xalqaro milliy kurash)</b></p> <p>O‘zbekistonda o‘zbek kurashining rivojlanish tarixi. Jarohatni oldini olish chora tadbirlari to‘g‘risida tushuncha berish. O‘quvchilarni barkamolikka yerishishida kurashning ahamiyati. Raqib yaktagining belbog‘idan, ikki qo‘lidan, yengidan, yoqasidan, qo‘llarni tirsagidan ushlagan holda to‘sakda siljishlar. Yiqilishdan saqlanish usullarini</p>	4	4 A 2

		<p>o‘rgatish. Orqaga yiqila yotganda qo‘llarni yonga tizzadan 45-50 sm uzoqlikda tutib to‘sakka qarsakchalgandek urib tushishni o‘rgatish. Orqadan va oldindan chalish usulini bajarayotganda himoyalanish va qarshi harakatni bilish. Oyoqlarni yondan va orqadan oyoq bilan qoqish usulini o‘rgatish, shu usullarga qarshi harakat ko‘nikmasini hosil qilish. O‘quv mashg‘ulot bellashuvi. Belbog‘li kurash. Tikturgan holda belbog‘dan ushslash usullarini va to‘sakda siljish harakat faoliyatlarini o‘rgatish. Siljish, tizzada cho‘kkalatish, kafturish (kiftlash) usullarini o‘rgatish va qarshi hujum qila olish. Qoqib tashlash (qoqma) usulini va qarshi harakat usullarini o‘rgatish. Ilib tashlash usulini o‘rgatish va qarshi harakatlarni mustahkamlash.</p> <p><b>Raqs elementlari va ritmik gimnastika</b></p> <p>—Yalla”, —Andijonpolkasi” dagi oyoq va qo‘Uammg harakatlarini o‘rganish. “ Chittigul”, “Aspbo‘lamon” o‘yinlari. —Voxay bola”, —Shuginami-yo” o‘yinlarni harakat faoliyatlarini o‘rganish.</p>		
5	Suzish	<p>Respublikamizda suzishturini rivojlanish tarixi. Suzishning o‘quvchilar tanasini rivojlanishda va nafas olish a’zolari faoliyatini yaxshilashdagi ahamiyati.</p> <p>Quruqlikda qo‘l va oyoq harakatlarini o‘rgatish. Krolusulidas uzishda suv yuzasida sirpanishni o‘rgatish. Yog‘ochni oyoqlari bilan qisib olgan holda qo‘l harakatini o‘rgatish. Suzishda to‘g‘ri nafas olish. Suzishda burilishni o‘rgatish. Chalqancha yotib suzish. Cho‘kayotgankishiga birinchi yordam ko‘rsatish. Krol usulida suzishda yog‘och taxtadan foydalanib va yog‘och taxtasiz suza olish, cho‘kayotgan kishini qutqarish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish</p>	4	4 A 2
6	Kross tayyorganligi	<p>Kross tayyorganligining xususiyatlari va uning organizmga tahsiri. Past-balandojylarda yugurish. Chidamlilikni rivojlantirish. Kross yugurishida to‘g‘ri nafas olish, kuchni to‘g‘ri taqsimlash, yugurish texnika va taktikasini o‘rgatish. Kross yugurishida to‘g‘ri nafas olish, kuchni to‘g‘ri taqsimlash, burilish va masofaga yugurishga yerishish.</p>	4	4 A 2

7	Harakatlimilli yo‘yinlarvaeas tafetalar.	Milliy harakatli o‘yinlar: “Qubba”, “Otibqochar”, “Olibqochar”, “Otishma”, “Qirqtosh”, “Qisqakelar”, “Chavondoz”, “Bo‘ron”, “Eshakmindi”, “Tepki”, “To‘puchun kurash”, “Tepa kurash”, “Kuchli va chaqqonlar”, “Futbolchilar estafetasi”, “Qo‘lto‘pi estafetasi”, “Beysbol”, “Basketbol yestafetasi”, “Ommaviy to‘p”, “Olimpiya globusi”, “Mashqni eslabqol”, “Matematik estafeta”, “Sehrlikataklar”, “Kim bir oyoq bilan sakraydi”, “Arg‘umchoq bilan juft bo‘lib sakrash”. O‘qituvchi harakat o‘yinlarini tanlashda ularning kasblar igamosligini e’tiborga olish kerak.	4	4 A	2
8	Amaliy kasbiy jismoniy tayyorgarlik	<p><b>Kasbga quyiladigan talablar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yelka, gavda muskullarini, gavda va oyoq bo‘g‘inlarini rivojlantirish;</li> <li>-tik vaziyatda muvozanat saqlashni takomillashtirish; oyoqlar chidamliligini, statik va umumiy chidamliligini rivojlantirish, qo‘l harakatlarini aniq muvofiqlashtirish.</li> </ul> <p><b>AKJT vositalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-har xil turdagи yurishlar, chap va o‘ng oyoqlarda sakrashlar, og‘irlik ko‘tarish va buyumlar bilan mashqlar; gimnastika tayoqchasi, gardish, to‘ldirma to‘plar va gantellar bilan mashqlar;</li> <li>-umboloq oshishlar, boshda tik turish va arqonga har xil tirmashib chiqishlar; to‘pni ushlab olish, uzatish va mo‘ljalga aniq uloqtirishlar;</li> <li>-yuqori va qiya balandliklardan yugurib tushishlar va boshqalar. Yengil atletika(sportcha yurish, o‘rta masofaga yugurish), gimnastika, basketbol, qo‘l to‘pi, tennis, stol tennisi kabi sport turlari bilan shug‘ullanish tavsiya yetiladi.</li> </ul>	2	2 A	2
9	Tanlab olingen sport turlari	<p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Madaniyat va sportishlari vazirligining qo‘shma qarorlari asosida tayanch ta’lim muassasasining belgilangan sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilishi tavsiyae tiladi.</p> <p><b>Katta tennis</b></p> <p>Respublikamizda kata tennis sport turinirivojlanish tarixi. Katta tennisning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Katta tennis sport turi qoidalarini o‘rgatish. Katta tennis sport turi qoidalarini bilish. Raketa bilan to‘pga to‘g‘ri zarba berish. To‘pni o‘yinga kirta olish</p> <p><b>Stol tennis.</b></p> <p>Respublikamizda stol tennis sport turini rivojlanish tarixi. Stol tennisning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Stol tennis sport turi qoidalarini</p>	4	4	

	<p>o‘rgatish.Stol tennis sport turiqoidalarini bilish. Raketka bilan to‘pga to‘g‘ri zarba berish. To‘pni o‘yinga krita olish</p> <p><b>Erkin kurash.</b></p> <p>Respublikamizda yerkin kurash sport turini rivojlanish tarixi. Yerkin kurashning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.Yerkin kurash sport turi qoidalarini o‘rgatish.</p> <p><b>Yunon-rum kurashi.</b></p> <p>Yunon -rum kurash sport turini rivojlanish tarixi. Yunon -rum kurashning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Yunon-rum kurash sport turi qoidalarini o‘rgatish. Yunon-rumkurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va yegiluvchanlikni mustaxkamlash. Yunon -rum kurashning oddiy usullarini bilish</p> <p><b>Dzyudo.</b></p> <p>Dzyudo kurash sport turini rivojlanish tarixi. Dzyudo kurashning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.</p> <p>Dzyudo kurash sport turi qoidalarini o‘rgatish.Dzyudo kurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va yegiluvchanlikni mustaxkamlash. Dzyudo kurashning oddiy usullarini bilish.</p> <p><b>Taekvondo.</b></p> <p>Taekvondo kurash sport turini rivojlanish tarixi. Taekvondo kurashning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Taekvondo kurash sport turi qoidalarini o‘rgatish.Taekvondo kurash sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va yegiluvchanlikni mustaxkamlash. Taekvondo kurashning oddiy usullarini bilish.</p> <p><b>Badiiy gimnastika.</b></p> <p>Respublikamizda badiiy gimnastika sport turini rivojlanish tarixi. Badiiy gimnastikaning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Badiiy gimnastika sport turi qoidalarini o‘rgatish. Badiiy gimnastika sport turi qoidalarini bilish. Chaqqonlik, yepchillik, chidamlilik va egiluvchanlikni mustaxkamlash. Badiiy gimnastikaning oddiy usullarini bilish</p> <p><b>Sport gimnastikasi.</b></p> <p>Respublikamizda sport gimnastika sport turinirivojlanishtarixi. Sport gimnastikaning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.Sport gimnastika sport turi qoidalarini o‘rgatish. Sport gimnastika sport turi qoidalarini bilish. Chaqqonlik, yepchillik, chidamlilik va yegiluvchanlikni</p>	
--	--	--

		<p>mustaxkamlash. Sport gimnastikaning oddiy usullarini bilish</p> <p><b>Og‘ir atletika.</b></p> <p>Respublikamizda Og‘ir atletika sport turini rivojlanish tarixi. Og‘ir atletikaning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Og‘ir atletika sport turi qoidalarini o‘rgatish. Og‘ir atletika sport turi qoidalarini bilish. Chidamlilik va kuchlilikni mustaxkamlash. Og‘ir atletikaning toshko‘tarish usullarini bilish</p> <p><b>Boks</b></p> <p>Respublikamizda Boks sport turini rivojlanish tarixi. Og‘ir atletikaning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Boks sport turi qoidalarini o‘rgatish.</p> <p><b>Velosport</b></p> <p>Velosportning o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati.</p> <p>Velosport sport turi qoidalarini o‘rgatish.</p> <p><b>Karate.</b></p> <p>Karatening o‘quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Ko‘nikma va malakalar. Karate sport turi qoidalarini o‘rgatish.</p> <p><b>Shaxmat/shashka.</b></p> <p>Shaxmat/shashkaning o‘quvchilar aqliy rivojlanishdagi ahamiyati. Shaxmat/shashka sport turi qoidalarini o‘rgatish.</p> <p><b>Sport raqsi.</b></p> <p>Sport raqsi sport turini rivojlanish tarixi. Sport raqsining o‘quvchilar jismoniy rivojlanishdagi ahamiyati. Sport raqsi yelementlarini o‘rgatish.</p> <p>Sport raqsi sport turi qoidalarini bilish. Yurish, yugurish, sakrash mashqlarini o‘rgatish. Sport raqsining oddiy usullarini bilish</p>		
<b>Jami:</b>		<b>36</b>	<b>36</b>	<b>18</b>

### 3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘kuv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baxolanadi.

Baxolash usullari yozma, og‘zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘ylgan maqsadga muofiq bulishi lozim.

### 4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

#### Prezident asarlari:

1. Shavkat Mirziyoev «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
2. Shavkat Mirziyoev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.

3. Shavkat Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2016.
4. Shavkat Mirziyoev «Taqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent – “O‘zbekiston” 2017.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Usmonxo‘jaev T., vaboshqalar. Jismoniytarbiyanazariyasi - T.:”O‘qituvchi”, 2004.
2. Usmonxo‘jaev T. Jismoniytarbiyava sport mashg‘ulotlari. - T.:”O‘qituvchi”, 2005.
3. Usmonxo‘jaev T. Jismoniytarbiya - T.:”O‘qituvchi”, 2007, 2009, 2010, 2011, 2012.
4. Normurodov A.N Yengil atletika 2005
5. Nigmanov B Sport o‘yinlari 2005
6. Normirodov A.N. Morgunova I.I MilliyvaHarakatlio‘yinlar 2005

**Qo‘srimcha adabiyotlar:**

**Internet manbalari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).